

YANGI O'ZBEKISTON: ILMIY TADQIQOTLAR


CONFERENCES.UZ

2026

DAVRIYLI: 2018-2026

DUNYODA BIRINCHI KASHF
ETILGAN TELEFON

Alexander Graham Bell



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJY OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR



TOSHKENT SHAHAR, AMIR
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00



WWW.TADQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



AVGUST
№91



**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР 1-
ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ЧАСТЬ-1**

**NEW UZBEKISTAN:
SCIENTIFIC
RESEARCH PART-1**

ТОШКЕНТ-2026



УЎК 323(575.1)(063)

КБК 66.3(5Ў)я43

И-18

DOI 10.5281/zenodo.11390854

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2026]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 91-қўп тармоқли илмий маърифий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2026 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2026. – 69 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегияси — Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ: — илмий изланиш ютуқларини амалий-тажриби жиҳат йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талабалар-иштирокчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилиб бориб, унда таълим тизимида илғор замонавий ёндашувлар, натижалар, муаммолар, ечимлар, статистик вазиятлар ва илмий-тараққиётнинг истиқболли режалари таҳлил қилинади конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонови, ю.ф.д., доцент

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қараишлар -

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар –

Исмаилов Хусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни -

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви -

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети "Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

6. Журналистика -

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)



7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –

Самигова Умида Хамидуллаевна (“Kinder land of Asia” НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

8. Адабиёт-

PhD Абдужаидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9. Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни -

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10. Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б.доценти, PhD)

11. Жисмоний тарбия ва спорт-

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12. Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14. Тасвирий санъат ва дизайн-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15. Мусиқа ва ҳаёт-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16. Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17. Физика-математика фанлари ютуқлари -

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18. Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар –

Зупарова Зулфия Ахрор қизи DSc (Тошкент тиббиёт академияси фармакология кафедраси доценти, фармацевтика фанлари доктори)

19. Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содикович DSc (Альфраганус университети, фармацевтика ва кимё кафедраси мудири, фармацевтика ва кимё фанлар доктори, профессор)

20. Ветеринария

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

21. Кимё фанлари ютуқлари -

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -

Ўўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)



23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Хамидович "ТИИМСХ"

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География- Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

Page maker/Верстка/Сахифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакции журнала.

www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail:
info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of

www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail:
info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000



ХУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

**QURILISH PUDRATI SHARTNOMASIDA ZARARNI QOPLASH
MAJBURIYATINI TA'MINLASHNING TASHKILIY-HUQUQIY
MEXANIZMLARI**

Donayev Abduqodir Haydarovich

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi
Odil sudlov akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda qurilish pudrati shartnomasida zararlarni qoplash majburiyatini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Zararlarni qoplash faqat sudda undiriladigan javobgarlik chorasi emas, balki shartnoma tuzish, texnik hujjatlarni yuritish, moliyalashtirish, ishlarni qabul qilish, kafolat davrida nuqsonlarni bartaraf etish va subpudratchilar ustidan nazorat qilish bosqichlarini qamrab oluvchi kompleks tizim sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: qurilish pudrati, zararlarni qoplash, buyurtmachi, pudratchi, kafolat muddati, kafolat summasi, texnik nazorat, ijro hujjatlari, subpudrat, shartnomaviy xavf.

Qurilish pudrati shartnomasi fuqarolik-huquqiy shartnomalar tizimida eng murakkab va davomli majburiyatlardan biridir. Uning natijasi ko'pincha ko'chmas mulk, infratuzilma obyekti yoki ijtimoiy ahamiyatga ega inshoot bilan bog'liq bo'lgani uchun shartnoma buzilishi oddiy hisob-kitob nizosidan kengroq oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ishni kechiktirish, loyiha-smeta hujjatlaridan chetga chiqish, sifatsiz materiallardan foydalanish, berkitiladigan ishlarni belgilangan tartibda qabul qildirmaslik yoki qurilish maydonini o'z vaqtida topshirmaslik taraflarning mulkiy manfaatlari bilan birga obyekt xavfsizligi va undan foydalanish imkoniyatiga ham ta'sir qiladi. Shu sababli qurilish pudratida zararlarni qoplash masalasi faqat sudda pul undirish mexanizmi sifatida emas, balki oldindan tashkil etiladigan huquqiy kafolatlar tizimi sifatida qaralishi lozim.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik nazariyasida zararlarni qoplash buzilgan mulkiy holatni tiklashga qaratilgan asosiy vosita sifatida talqin qilinadi. Majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik bo'yicha tadqiqotlarda javobgarlik buzilgan huquqni tiklash va majburiyatni buzgan taraf zimmasiga qo'shimcha mulkiy oqibat yuklash bilan bog'lanishi qayd etiladi [3; 5-6-b.]. Qurilish pudratida bu umumiy qoida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi: zarar ish qiymati, obyektni foydalanishga topshirish muddati, sifatsiz bajarilgan ishni qayta bajarish xarajatlari, yo'qotilgan foyda, qurilish texnikasi yoki materiallarining shikastlanishi, kafolat davrida aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish xarajatlaridan iborat bo'lishi mumkin. Shu bois zararni qoplash majburiyatini ta'minlash uchun faqat neustoyka yoki jarima bilan cheklanmasdan, shartnomaning butun hayotiy sikli bo'yicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratish zarur.



Birinchi mexanizm – shartnoma predmetini, ish hajmini va texnik hujjatlar doirasini aniq belgilashdir. Qurilish pudrati ko‘plab texnik, loyiha, smeta va ijro hujjatlariga tayanadi. S.K. Idrishevaning fikricha, qurilish pudrati bo‘yicha majburiyatlar faqat fuqarolik kodeksi normalari bilan emas, balki ommaviy-huquqiy va texnik normalar tizimi, jumladan, texnik reglamentlar, qurilish normalari va boshqa majburiy hujjatlar bilan ham tartibga solinadi [4; 23-24-b.]. Shuning uchun shartnoma matnida loyiha-smeta hujjatlari, ishchi chizmalar, texnik shartlar, qurilish me‘yorlari, ijro hujjatlari va ularga rioya qilmaslik oqibatlari aniq ko‘rsatilmasa, keyinchalik zarar miqdori hamda uni kim qoplashi bo‘yicha nizolar kuchayadi. Amaliy shartnomalarda ijro hujjatlari tarkibiga ishchi chizmalar, sertifikatlar, texnik pasportlar, berkitiladigan ishlar dalolatnomalari va ishlarni bajarish daftari kiritilishi ham aynan shu zaruratdan kelib chiqadi [8].

Ikkinchi mexanizm – buyurtmachi va pudratchi majburiyatlarining o‘zaro bog‘liqligini to‘g‘ri aks ettirishdir. Qurilish pudratida pudratchi ishni bajaradi va natijani topshiradi, buyurtmachi esa qurilish maydonini, zarur sharoitlarni, hujjatlarni, moliyalashtirishni va ish natijasini qabul qilishni ta‘minlaydi. P.A. Zaxarova mazkur majburiyatlarni moddiy ta‘minot, ishni bajarish, moliyalashtirish hamda topshirish-qabul qilish bloklari bo‘yicha tasniflaydi [5; 61-62-b.]. Shunday ekan, zararni qoplash majburiyatini faqat pudratchi zimmasiga yuklash to‘g‘ri emas. Agar kechikish buyurtmachining yer uchastkasini vaqtida bermagani, ijro hujjatlari ro‘yxatini kech taqdim etgani, moliyalashtirishni kechiktirgani yoki bajarilgan ishlarni asossiz qabul qilmagani oqibatida kelib chiqqan bo‘lsa, pudratchiga zararlarni to‘liq yuklash fuqarolik huquqidagi ekvivalentlik va insofli harakat qilish tamoyillariga zid bo‘ladi.

Uchinchi mexanizm – qurilish jarayonida doimiy texnik nazorat va hujjatlashtirishni yo‘lga qo‘yishdir. Qurilishdagi zararlarni ko‘pincha ish yakunlangandan keyin emas, balki jarayonning o‘zida oldini olish mumkin bo‘lgan kamchiliklardan kelib chiqadi. Amaliy shartnomalarda buyurtmachining texnik auditor tayinlashi, auditorning ish sifati, materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma hamda ish hujjatlariga muvofiqligini tekshirishi nazarda tutiladi [8]. Bunday mexanizm zararlarni keyinchalik sudda isbotlashni yengillashtiradi, chunki ishlarning borishi, materiallar sifati, to‘xtab qolish sabablari, sinovlar va qabul qilish jarayonlari hujjatlashtiriladi. Shu nuqtai nazardan, ishlarni bajarish daftari oddiy texnik yozuv emas, balki kelgusida zararlarni qoplash talabi bo‘yicha daliliy baza vazifasini bajaradigan tashkiliy-huquqiy vositadir.

To‘rtinchi mexanizm – berkitiladigan ishlar va mas‘ul konstruksiyalarni oraliq qabul qilish tartibini kuchaytirishdir. Qurilishda keyingi bosqichlar bilan yopilib ketadigan ishlarning sifati keyinchalik oddiy ko‘zdan kechirish orqali aniqlanmasligi mumkin. Shu sababli pudratchining bunday ishlar tayyor bo‘lishidan oldin buyurtmachi va tegishli nazorat organini yozma xabardor qilishi, qabul qilish dalolatnomalarini rasmiylashtirishi, buyurtmachining yozma ruxsatisiz keyingi bosqichga o‘tmasligi muhimdir. Agar berkitiladigan ishlar buyurtmachining tasdig‘isiz bajarilgan bo‘lsa, pudratchining ularni o‘z hisobidan ochish va tiklash



majburiyati zararlarni oldini olishga xizmat qiladi [8]. Bu mexanizm suddan oldingi profilaktik kafolat bo'lib, obyekt foydalanishga topshirilgandan keyin yirik nuqsonlar aniqlanishining oldini oladi.

Beshinchi mexanizm – kafolat muddati, kafolat summasi va nuqsonlarni bartaraf etish tartibini aniq belgilashdir. Qurilish pudratida obyekt qabul qilingandan keyin ham pudratchining javobgarligi tugamaydi. Amaliy shartnomalarda pudratchi ishlarning loyiha hujjatlari, qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlarga muvofiqligini, materiallar sifatini hamda kafolat davrida aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etishni kafolatlaydi [8]. Agar nuqsonlardan foydalanishni davom ettirish imkonsiz bo'lsa, kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytirilishi mumkin. Nuqsonlar ikki tomonlama dalolatnomada qayd etilishi, pudratchi ularni vaqtida bartaraf etmasa, buyurtmachi kafolat summasini ushlab qolishi zararlarni qoplash majburiyatini real ta'minlovchi vosita sifatida baholanishi kerak.

Oltinchi mexanizm – qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish va xavflarni shartnomada taqsimlashdir. Qurilish jarayonida materiallar yo'qolishi, texnika shikastlanishi, obyektning tasodifiy zararlanishi yoki uchinchi shaxslarga zarar yetishi mumkin. Amaliy shartnomada pudratchining qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish majburiyati, obyekt qabul qilingunga qadar tasodifiy yo'q bo'lish va shikastlanish xavfi pudratchi zimmasida bo'lishi ko'rsatilgan [8]. Bunday qoida zararlarni qoplashni faqat aybdor tarafning moliyaviy imkoniyatiga bog'lab qo'ymaydi, balki sug'urta mexanizmi orqali jabrlangan tarafning mulkiy manfaatlarini barqaror himoya qiladi. Sug'urta shartlari umumiy tarzda emas, qaysi xavf, qaysi summa va qaysi davrni qamrab olishini aniq ko'rsatgan holda tuzilishi lozim.

Yettinchi mexanizm – subpudratchilar faoliyati ustidan shartnomaviy nazoratni kuchaytirishdir. Katta qurilish loyihalarida pudratchi ko'pincha subpudratchilarni jalb qiladi. Biroq buyurtmachi bilan asosiy shartnoma bo'yicha javobgarlik umumiy pudratchi zimmasida qoladi. Xorijiy tajribada ham pudratchining yordamchilar va subpudratchilar harakati uchun javobgarligi, ayrim hollarda barcha ishlarni subpudratchiga to'liq topshirishni cheklash yoki buyurtmachiga subpudratchini almashtirish imkoniyatini berish kabi mexanizmlar uchraydi [6; 28-b.]. Milliy shartnomalarda pudratchining subpudratchi bilan tuziladigan shartnomalar, ularning predmeti, nomi va manzili haqida buyurtmachini xabardor qilishi, shuningdek subpudratchi harakati natijasida yetkazilgan zararlar uchun umumiy pudratchining to'liq mulkiy javobgarligi bevosita ko'rsatilishi kerak.

Sakkizinchi mexanizm – qo'shimcha ishlar, smeta o'zgarishi va xabardor qilish tartibini aniqlashtirishdir. Qurilish jarayonida loyiha hujjatlaridagi kamchiliklar, kutilmagan texnik holatlar yoki buyurtmachi topshirig'ining o'zgarishi qo'shimcha ishlarni talab qilishi mumkin. Zakharova tahliliga ko'ra, pudratchi qo'shimcha ishlar zarurligini aniqlaganida buyurtmachini xabardor qilishi, javob bo'lmaganda ishlarni to'xtatishi kerak; aks holda u qo'shimcha ishlar haqini va yuzaga kelgan zararlarni



talab qilish huquqidan mahrum bo'lishi mumkin [5; 63-b.]. Demak, xabardor qilish tartibi ham zararlarni qoplashni ta'minlovchi muhim protsessual-huquqiy vosita sifatida qaralishi kerak.

Qiyosiy-huquqiy jihatdan rivojlangan yondashuvlarda qurilish pudrati bo'yicha zararlarni qoplash majburiyatini ta'minlash ko'proq shartnomaviy xavflarni oldindan taqsimlash, texnik nazorat, kafolat va real ijro mexanizmlariga tayanadi. Masalan, ayrim xorijiy tajribada ish natijasida kamchiliklar aniqlanganda buyurtmachining narxni pasaytirish, kamchiliklarni bepul bartaraf etishni talab qilish yoki pudratchining aybini isbotlagan holda zararlarni qoplashni talab qilish huquqi ko'rsatiladi [6; 26-b.]. Bunday yondashuv zararlarni qoplashni yagona sanksiya sifatida emas, balki ish natijasini tiklash, narxni moslashtirish va mulkiy zararlarni qoplash choralarining kombinatsiyasi sifatida tushunishga imkon beradi.

O'zbekiston qurilish pudrati amaliyotida zararlarni qoplash majburiyatini ta'minlash bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin. **Birinchidan**, qurilish pudrati namunaviy shartnomalarida *“zararni qoplashni ta'minlash mexanizmlari”* degan alohida bo'lim kiritilishi va unda kafolat summasi, sug'urta, ijro hujjatlari, nuqsonlar reyestri, texnik auditor xulosasi hamda subpudratchilar javobgarligi bir tizimda tartibga solinishi zarur. **Ikkinchidan**, yirik qurilish loyihalarida *“shartnomaviy risk pasporti”* ishlab chiqilib, kechikish, sifat, moliyalashtirish, loyiha hujjatlari, materiallar va qabul qilish bilan bog'liq xavflar bo'yicha javobgar taraf oldindan aniqlanishi lozim. **Uchinchidan**, kafolat davrida aniqlangan nuqsonlar elektron reyestrda qayd etilib, ularni bartaraf etish muddati, mas'ul shaxs, xarajat manbai va ijro holati monitoring qilinishi maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, qurilish pudrati shartnomasida zararlarni qoplash majburiyatini ta'minlash birgina sudga da'vo kiritish yoki neustoyka undirish bilan cheklanmaydi. Bu majburiyat loyiha hujjatlarini tayyorlashdan boshlab qurilish maydonini topshirish, moliyalashtirish, texnik nazorat, ijro hujjatlarini yuritish, berkitiladigan ishlarni qabul qilish, kafolat davrida nuqsonlarni bartaraf etish, subpudratchilar faoliyatini nazorat qilish va shartnomani bekor qilish oqibatlarigacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oladi. Ana shunday kompleks tashkiliy-huquqiy tizim shakllantirilgan taqdirdagina qurilish pudratida taraflar manfaatlari muvozanati, shartnoma intizomi va fuqarolik-huquqiy javobgarlikning real samaradorligi ta'minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 1995-yil 21-dekabrda va 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan // URL: <https://lex.uz/docs/-111189>
2. O'zbekiston Respublikasining “Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonuni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-18942>
3. A.S. Odinayev Majburiyatlarni buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo'llashning nazariy va amaliy muammolari: yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, 2025. 50 b.



4. Идрышева С.К. Договор строительного подряда в законодательстве Казахстана // Право и государство. 2022. № 1 (94). – С. 23–41.
5. Захарова П.А. Договор строительного подряда: магистерская диссертация. – Томск, 2019. – 96 с.
6. Xudaybergenov B.B. Qurilish pudrati shartnomasini huquqiy tartibga solish bo'yicha xorijiy tajriba // Yurisprudensiya. 2024. 5-son – B. 19-27.
7. Муроджонова М.М., Имамова Д.И. Понятие международного договора строительного подряда // Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of Law Sciences. 2023. 2-son. – B. 61-69.
8. Qurilish pudrat shartnomasi №33130. Surxondaryo viloyati Sherobod tumani “K-11-12”, “K-11-11”, “K-10” va “VSK-14” kollektor tarmoqlarini tizimli ta'mirlash-tiklash. Termiz, 2023-yil 4-iyul.



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

“BUKLANGAN PEKIN” 《北京折叠》 QISSASIDA ILMIY FANTASTIKA
VA IJTIMOIIY TANQID NISBATI

Nigina Rasuleva

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Xitoyshunoslik oliy maktabi dotsenti, PhD

nigina1114@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Hao Jingfang 郝景芳 “*Buklangan Pekin*” 《北京折叠》 qissasida ilmiy fantastika va ijtimoiy tanqid oʻrtasidagi oʻzaro nisbat tahlil qilinadi. Asarda ilmiy fantastik gʻoyalar, futuristik makon va “buklangan shahar” konsepsiyasining badiiy vazifasi yoritilib, ijtimoiy tabaqalanish, tengsizlik va zamonaviy urbanizatsiya muammolarining ifodalanishiga alohida eʼtibor qaratiladi. Tadqiqot natijasida, qissada ijtimoiy tanqid unsurlari ilmiy fantastik elementlardan ustunligi hamda asarning janriy xususiyatlari ilmiy nuqtai nazardan baholanadi.

Kalit soʻzlar: Xitoy ilmiy fantastikasi, ijtimoiy tabaqalanish, urbanizatsiya, futuristik makon, janriy tahlil.

Zamonaviy xitoy ilmiy fantastika yozuvchisi Hao Jingfang 郝景芳¹ qalamiga mansub iyerarxik toʻsiqlari aniq boʻlgan “*Buklangan Pekin*” 《北京折叠》 qissasi boʻladimi yoki Han Song 韩松 tasvirlagan hayratlanarli “*Keksalik*” 《老年时代》 qissasi boʻladimi, ilmiy fantastik asarlarda voqelikdagi dunyo tuzilmasining murakkabligi borasida borgan sari koʻproq mulohaza qilinmoqda. Hao Jingfang 郝景芳 “*Buklangan Pekin*” 《北京折叠》 asarining voqealari Pekinda boʻlib oʻtadi. Pekin xalqaro megapolis boʻlishi bilan bir qatorda oddiy aholi yashaydigan shahardir. Yozuvchi ana shu voqelikdagi boy-kambagʻal sifatida tabaqalanishni qaytadan loyihalashtirib, obrazlashtiradi. Yuqori boylar jamiyati birinchi makonga tegishli boʻlsa, quyi tabaqadagi omma uchinchi makonga tegishli boʻladi. Ular bir xil vaqtda paydo boʻlmaydi, hayotlari ham osmon va yer kabi farq qiladi. Ular nafaqat jismoniy masofa jihatidan bir-biridan ajratilgan, balki sinflar orasidagi harakat ham haddan tashqari qiyindir. Belgilangan vaqt kelganda, shahar toʻntarila boshlaydi, eski shahar kichrayib, yangi shahar jadal ravishda yerdan koʻtariladi. Hammasi azim va ajoyib koʻrinsa-da, muallif chiroyli badiiy tasvirlar orqali oʻquvchini qoyil qoldiradi, chunki buklangan Pekin haqiqiy Pekindan umuman farq qilmay qolgan edi. Isteʼmolchi distopiyaning tanqid qiluvchi gʻarbiy ilmiy fantastik romanlar bilan taqqoslaganda, Xitoy ilmiy fantastik romanlarida jamiyatda mavjud

¹ Hao Jingfang 郝景芳 - zamonaviy xitoy ilmiy fantastika yozuvchisi va iqtisodchi. U Xitoyning yangi avlod ilmiy fantast mualliflaridan biri boʻlib, ijtimoiy tengsizlik, urbanizatsiya va iqtisodiy tizimlar mavzusini ilmiy fantastik shaklda yoritadi.



bo'lgan og'riqli nuqtalar haqida mulohaza qilishga ko'proq e'tibor qaratiladi. Sinflar tafovuti yoki aholi yoshining ulg'ayishi masalasi bo'lishidan qat'iy nazar, Xitoy ilmiy fantastik utopiyasi o'quvchilarni kelajak haqidagi hayratlanarli hissiyotlar ichiga olib kiradi. Bu roman 2016-yilda "Hugo Award" mukofotini qo'lga kiritgan.

Quyida asardan distopik ruhni ifodalovchi qisqa parcha keltirib tahlil qilamiz.

“第三空间的人口最多，却拥有最少的时间。他们的白天只有短短的八个小时。其余的时间，这座城市为别人而运转。”

“Uchinchi makon aholisi eng ko'p edi, ammo eng kam vaqtga ega edi. Ularning “kunduzi” atigi sakkiz soat davom etardi. Qolgan vaqt esa bu shahar boshqalar uchun ishlardi.”

“人口最多，却拥有最少的时间” — son va resurs o'rtasidagi paradoks. Bu distopiyaning asosiy belgisi: ko'pchilik resursdan mahrum.”

“为别人而运转” (boshqalar uchun ishlash) — ekspluatatsiya metaforasi.

Shahar — mexanizm, inson esa uning detallari.

“八个小时” — vaqtning normativ chegaralanishi; bu jamiyatdagi mehnat qonunchiligini eslatadi, ammo bu yerda vaqt hayotning o'zi bilan tenglashtiriladi. Bu distopiyaning asosiy belgisi: ko'pchilik resursdan mahrum. Distopiya bu yerda strukturaviy- iqtisodiy zulm shaklida namoyon bo'ladi.

“这样不是更公平吗？”

每个人都在属于自己的时间里生活。”

“Bu adolatliroq emasmi?”

Har kim o'ziga tegishli vaqt ichida yashaydi.”

Bu dialog distopiyaning eng nozik jihatini ko'rsatadi:

“更公平” (yanada adolatli) — tizim o'zini adolatli deb ko'rsatadi.

“属于自己的时间” (o'ziga tegishli vaqt) — egalik diskursi orqali tengsizlikni tabiiylashtirish. Bu yerda ochiq zo'ravonlik yo'q, ammo ideologik normalizatsiya mavjud. Tizimni qabul qilish ong orqali amalga oshiriladi. Asardagi fantastik “buklanish” mexanizmi real urban kapitalizmi² ning allegoriyasidir. Distopiya qo'rqinchli repressiya orqali emas, balki resurslarning matematik taqsimoti va legitim diskurs³ orqali yaratiladi. Shu jihatdan, “Buklangan Pekin” 《北京折叠》 - XXI asrning “yumshoq distopiyasi” bo'lib, u iqtisodiy tengsizlikni markazga qo'yadi. “Buklangan Pekin” 《北京折叠》 tasvirlangan voqealarni hozirgi kundagi real hodisalar bilan ham qiyoslash mumkin. Masalan, urban kapitalizm- ko'chmas mulk spekulyatsiyasi: qissada shahar mexanik tizim sifatida ishlaydi. Bugungi real hodisalar: uy-joy bozorining investitsiya obyektiga aylanishi,

² Urban kapitalizm- bu kapitalistik iqtisodiyotning shahar makoni orqali tashkil etilishi va boshqarilishi jarayonidir. Ya'ni shahar nafaqat yashash joyi, balki kapital ishlab chiqarish, aylantirish va jamg'arish markaziga aylanadi.

³ Legitm diskurs- bu hokimiyat, ijtimoiy tizim yoki qarorlarni “to'g'ri”, “tabiiy”, “adolatli” deb ko'rsatish orqali ularni gonuniy va maqbul sifatida qabul qildirishga xizmat qiladigan nutqiy (diskursiv) mexanizmdir.



ipoteka inqirozlari, moliyaviy zonalar va “smart city” loyihalari. Ya’ni yashash makonidan ko‘ra kapital aylanish maydoniga aylanmoqda. Makonning buklanishi-romanda Pekin uch qatlamga fizik jihatdan ajratilgan. Reallikda esa saralangan boy insonlar turar-joy majmualari, yopiq saroylar, ishchilar yashaydigan chekka hududlar, uy-joy naxlarining keskin tafovuti. Mazkur asarlar jamiyat tuzumi va uning amal qilish mexanizmlariga oid utopik yoki antiutopik modellarni yaratish orqali mualliflarning ideal jamiyat haqidagi tasavvurlarini namoyon etadi. Biroq ularning asosiy e’tibori ilmiy-texnik taraqqiyotdan ko‘ra, ijtimoiy-falsafiy va ontologik muammolarni yoritishga qaratilgan.

Ilmiy fantastik asarlarning yana bir umumiy jihati shundaki, ular mafkuraviy qarashlar hamda ijtimoiy institutlarning o‘zaro uyg‘unlashuvini tajriba tariqasida tasvirlaydi. Mualliflar mavjud ijtimoiy qarashlar va institutlarni tanqidiy nuqtai nazardan baholash orqali jamiyatning taraqqiy etuvchi yoki inqirozga yuz tutuvchi rivojlanish ssenariylarini tasavvur qiladilar. Bunday tasvirning asosiy maqsadi muallif ideal deb bilgan «bo‘lishi kerak bo‘lgan» ijtimoiy model orqali mavjud «bor holat» ni qayta ko‘rib chiqish va unga tanqidiy yondashishdan iborat.

Agar utopik va antiutopik romanlardagi ilmiy fantastik elementlar tahlil qilinsa, ularning asosiy qismi tabiiy fanlardan ko‘ra ijtimoiy fanlar doirasiga mansub ekanligi ayon bo‘ladi. Bu esa ilmiy fantastika adabiyotining odatda tabiiy fanlarga oid masalalar – koinot va makon-zamon evolyutsiyasi, insoniyat taraqqiyotining istiqbollari kabi ilmiy va innovatsion g‘oyalar bilan shug‘ullanishidan sezilarli darajada farq qiladi.

Bugungi kungacha e’tirof etilgan ko‘plab utopik va antiutopik asarlar orasida tabiiy fanlarga oid tasvirlar uchrasa-da, ular asar mazmunining juda kichik qismini tashkil etadi. Hatto sovet yozuvchisi Ivan Yefremovning «Andromeda tumanligi» singari ilmiy mazmuni nisbatan kuchli bo‘lgan romanlari ham ilmiy fantastikaning an’anaviy namunalaridan ko‘ra o‘ziga xos, noan’anaviy asarlar sifatida baholanadi.

Ilmiy fantastika adabiyoti uchun «ilmiylik» eng muhim mezon hisoblanadi. Agar qat’iy, ya’ni «qattiq ilmiy fantastika» (hard science fiction) mezonlari qo‘llansa, ushbu talablarga to‘liq javob beradigan asarlar soni juda kamligi ayon bo‘ladi.

Haqiqiy ilmiy fantastik asar ilmiy jihatdan puxta asoslangan, intellektual jihatdan murakkab va o‘quvchida ilmiy izlanishga bo‘lgan kuchli qiziqishni uyg‘ota olishi kerak. Bunday qiziqish ko‘pchilik uchun go‘yoki o‘zini qiynashdek tuyulishi mumkin, biroq bilim olish va noma’lumni tadqiq etish jarayonidagi mashaqqat aslida insonni ruhiy jihatdan boyitadigan, «mashaqqat orqali zavq olish» tamoyiliga asoslangan ijobiy tajribadir. Bu turdagi «mashaqqat» Jorj Oruellning 1984 yoki 2015 kabi antiutopik asarlar o‘quvchida uyg‘otadigan og‘ir bosim, tushkunlik va umidsizlik hissidan tubdan farq qiladi. Aynan o‘quvchining mutolaa jarayonidagi ruhiy reaksiyasi ilmiy fantastika bilan (anti)utopik adabiyot o‘rtasidagi mohiyatan farqni yaqqol namoyon etadi.

Shu mezon asosida Hao Jingfang 郝景芳 “*Buklangan Pekin*” 《北京折叠》 qissasini baholaydigan bo‘lsak, ilmiy fantastika asarlarining asosiy talabi hisoblangan ilmiy g‘oyaga tayangan holda keng ko‘lamli badiiy tasavvur yaratish



vazifasi mazkur asarda yetarli darajada amalga oshmaganini ko'rish mumkin. Asarda tasvirlangan voqelik aslida bugungi kundagi real hayotdan deyarli uzoqlashmaydi; u har bir inson kundalik hayoti bilan go'yoki «bir qadam» masofadadir. Qahramonlar va syujet ham oddiy realist asarlarda uchraydigan, hayotiy tajribaga asoslangan badiiy to'qimalardan iborat bo'lib, ularda ilmiy fantastik tasavvurga xos yangilik deyarli sezilmaydi.

Haqiqiy Pekin shahri geografik jihatdan tekis bo'lishiga qaramay, odamlar undagi tog'lar, daralar va relyef xususiyatlarini GPS yoki navigatsiya tizimisiz ham anglay oladilar hamda o'z hayot tarziga mos makonni topa biladilar. Real hayotda ijtimoiy qatlamlar o'rtasida harakatlanish, albatta, oson emas. Biroq asardagi Lao Dao singari qahramonning deyarli hech qanday ilmiy-texnik muammoga duch kelmasdan, shunchaki sarguzashtga o'xshash tarzda «qatlamlar» orasida erkin harakatlanishi voqealarni haddan tashqari dramatiklashtiradi. Bundan tashqari, agar faqat «buklanish» g'oyasining o'zi nazarda tutilsa, nazariy jihatdan Pekin kabi ulkan shaharni buklash mutlaqo imkonsiz, deb ham bo'lmaydi. Transformerlarga o'xshash o'yinchoqlar bilan o'ynagan bolalar ham bunday mexanik o'zgarishning ilmiy muammo emasligini tushunadilar. Bunday vazifa, xolos, mexanik muhandislar uchun murakkab texnik masala bo'lishi mumkin. Biroq muallif asarda aynan shu murakkab ilmiy izohlarni chetlab o'tadi va badiiy fantaziya imkoniyatidan foydalanib, Pekinni osonlik bilan «buklaydi».

Ilmiy fantastika o'ziga xos va murakkab adabiy janr bo'lib, u muallifdan ham ilmiy, ham badiiy tafakkurning uyg'unligini talab qiladi

Ilmiy fantast yozuvchi Artur Klark o'z iste'dodini hech qachon maqtamagan. Biroq uning asarlarida tasvirlangan kosmik tadqiqotlarga oid ko'plab voqealar va tafsilotlar keyinchalik hayotda deyarli aynan takrorlandi. Jumladan, «Apollon-13» falokatining ayrim tafsilotlari uning «2001: Kosmik Odissey» (*2001: A Space Odyssey*) asarida tasvirlangan voqealar bilan hayratlanarli darajada o'xshash edi. Masalan, kosmik kemadagi bosh kompyuterning nomi «Discovery», kislorod baki portlagan paytda astronautlarning televideniye orqali murojaati va hatto yangragan musiqa ham film sahnalari bilan juda yaqin uyg'unlashgan. Astronautlarning Yer bilan bog'lanishdagi mashhur: «Houston, we've had a problem» («Xyuston, bizda muammo yuz berdi») degan jumlasini ham film mazmunini eslatadi.

Bunday e'tibor va hayrat qarshisida Artur Klark doimo shuni ta'kidlagan: «Bularning barchasi badiiy to'qimadir.» Uning asl ma'nodagi ishorasi esa shunday edi: agar tasodif yuz bersa, bu shunchaki tasodifdir. Ehtimol, aynan mana shunday «tasodiflar» unga haddan tashqari katta bosim yuklagan bo'lsa kerakki, u mashhur «Kosmik Odissey» turkumini «3001: Yakuniy Odissey» romani bilan yakunlagan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, «*Buklangan Pekin*» 《北京折叠》 qissasi ilmiy fantastika vositalari orqali zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish va tengsizlik muammolarini badiiy talqin etadi. Asarda ilmiy-fantastik g'oyalar mavjud bo'lsa-da, ijtimoiy tanqid ustuvor mavqe egallaydi. Shu bois qissa ilmiy fantastika va ijtimoiy realizm uyg'unlashgan, jamiyat muammolarini futuristik tasvir orqali yorituvchi muhim zamonaviy Xitoy adabiyoti namunasi sifatida e'tirof etiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 陈健华. 二十世纪中俄文学关系 [M]. 北京: 高等教育出版社, 2002.
2. 宝树. 科幻中的中国历史[M].北京:新知三联书店. 2017.
3. 赵海虹. 桦树的眼睛[M].杭州: 浙江少儿出版社, 2011.
4. 吴岩. 科幻文学论纲[M].重庆: 重庆出版社, 2011.4
5. www.qidian.com



ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

ИҚТИСОДИЙОТНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШДА МОЛИЯВИЙ
РЕСУРSLARNING АҲАМИЯТИ

Avezov Mirzobek Komiljonovich

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

Biznes va boshqaruv kafedrası dotsenti v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada moliyaviy resurslarning iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi oʻrni va ahamiyati nazariy-uslubiy jihatdan tahlil qilingan. Moliyaviy rivojlanish, investitsion faollik va iqtisodiy oʻsish oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik, moliyalashtirish manbalari tarkibidagi tarkibiy oʻzgarishlar hamda ularning YaIM dinamikasiga taʼsiri statistik-tahliliy maʼlumotlar asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari moliyaviy resurslarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: moliyaviy resurslar, barqaror iqtisodiy rivojlanish, investitsiyalar, moliyaviy rivojlanish, moliyalashtirish manbalari, moliyaviy barqarorlik.

KIRISH

Iqtisodiyotning barqaror va jadal rivojlanishini taʼminlashda moliyaviy resurslar hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Investitsiyalar, kreditlar, byudjet mablagʻlari, qimmatli qogʻozlar bozori instrumentlari va boshqa moliyaviy vositalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, texnologik yangilanishni taʼminlash, infratuzilmani rivojlantirish hamda inson kapitaliga sarmoya kiritish uchun zarur moddiy asosni yaratadi. Iqtisodiy nazariyada moliyaviy tizim va real iqtisodiyot oʻrtasidagi barqaror bogʻliqlik hali Y. Shumpeter davridan buyon iqtisodchilar eʼtiborida boʻlib kelmoqda [1].

Zamonaviy sharoitda moliyaviy resurslarning ahamiyati yanada ortmoqda, chunki iqtisodiy oʻsishning oʻzi barqarorlik mezonlariga javob berishi — yaʼni ijtimoiy va ekologik omillarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi talab etilmoqda. Shu bilan birga, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, ularni jalb qilish va taqsimlashdagi nomutanosibliklar koʻplab rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan Oʻzbekiston uchun ham dolzarb muammo boʻlib qolmoqda.

Maqolaning maqsadi — moliyaviy resurslarning iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi oʻrnini nazariy jihatdan asoslash, mavjud ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish hamda moliyalashtirish manbalari tarkibi va investitsion faollik dinamikasini statistik-tahliliy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi: moliyaviy resurslar va iqtisodiy oʻsish oʻrtasidagi nazariy bogʻliqlikni tizimlashtirish; moliyalashtirish manbalari tarkibidagi oʻzgarishlarni



tahlil qilish; investitsiyalar hajmi bilan YaIM o'sish sur'ati o'rtasidagi bog'liqlikni baholash.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Moliyaviy resurslarning iqtisodiy o'sishdagi rolini ilmiy asoslash bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar mavjud. Levin [2] tomonidan moliyaviy tizimning real iqtisodiyotga ta'siri investitsiya qarorlari, jamg'arma darajasi va texnologik innovatsiya sur'atiga ta'siri orqali izohlanadi. Muallif moliyaviy vositachilikning rivojlanishi kapitalning samarali taqsimlanishini ta'minlashi va shu orqali uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan.

So'nggi yillarda chop etilgan xalqaro tadqiqotlarda [3] moliyaviy rivojlanishning barqaror iqtisodiy rivojlanishga ta'siri kam va o'rta daromadli mamlakatlar misolida o'rganilgan bo'lib, natijalar moliyaviy rivojlanish, tabiiy resurslar mo'lligi, xalqaro turizm, savdo ochiqligi va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning barqaror iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Yuqori daromadli mamlakatlar misolida o'tkazilgan boshqa bir tadqiqotda [4] esa muhim ogohlantiruvchi xulosa qilingan — moliyaviy chuqurlashuvning haddan tashqari yuqori darajasi, aksincha, ekologik barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi va me'yorlashtirilgan, muvozanatli moliyaviy rivojlanish siyosati zarurligi ta'kidlangan.

Moliyaviy inklyuzivlik masalasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotda [5] moliyaviy resurslarga — jamg'arma hisobvaraqlari, investitsiyalar, kredit imkoniyatlari kabi — kirish imkoniyatining kengayishi iqtisodiy faollikni oshirishi, kambag'allikni qisqartirishi (BRM-1) hamda yangi ish o'rinlari yaratish orqali barqaror rivojlanishga (BRM-8) hissa qo'shishi statistik jihatdan asoslab berilgan. Bunda davlat samaradorligi va iqtisodiy globallashtirish omillarining aksincha ta'siri ham qayd etilgan, bu esa moliyaviy siyosatni ishlab chiqishda institutsional muhitni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Moliyaviy rivojlanish, eko-innovatsiya va iqtisodiy murakkablik o'rtasidagi nochiqli bog'liqliklarni o'rganuvchi tadqiqotda [6] rivojlanayotgan mamlakatlar misolida moliyaviy tizim yaxshi rivojlangan taqdirda resurslarni samarali ravishda «yashil» texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energetika loyihalariga yo'naltirish mumkinligi ko'rsatilgan. Tabiiy resurslar boyligi, geosiyosiy xavf va moliyaviy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qiluvchi tadqiqotda [7] esa tabiiy resurslardan olinadigan daromadlarning inson kapitali, infratuzilma va ijtimoiy xizmatlarga investitsiya sifatida yo'naltirilishi barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim mexanizmi sifatida ko'rsatilgan.

Milliy iqtisodiyot sharoitida moliyaviy resurslar masalasi ham korxona, ham hudud va ham davlat darajasida o'rganilmoqda. Xususan, korxona darajasida moliyaviy resurslarni tahlil qilishning nazariy-uslubiy asoslari va moliyaviy hisobotni gorizonttal hamda vertikal tahlil qilish usullari [8] ishlab chiqilgan bo'lsa, davlat darajasida byudjet mablag'laridan maqsadli va oqilona foydalanishni ta'minlashda moliyaviy nazoratning o'rni [9] alohida ko'rsatib berilgan. Hududlar darajasida esa hududlarni rivojlantirish uchun zarur moliyaviy resurslar bilan



ta'minlash hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish masalalari [10] dolzarb yo'nalish sifatida qayd etilgan.


Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili moliyaviy resurslarning iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishga ta'siri bo'yicha ilmiy konsensus shakllanganligini, biroq bu ta'sirning chiziqli emasligini — ya'ni moliyaviy rivojlanish darajasi, uning tarkibi va institutsional sifat bilan bog'liq holda turlicha natija berishini ko'rsatadi. Shu sababli moliyaviy resurslarning tarkibiy dinamikasini va ularning real iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari bilan bog'liqligini milliy sharoitda tahlil qilish tadqiqotning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

TAHLIL

Moliyaviy resurslarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholash maqsadida ikki yo'nalishda tahlil olib borildi: birinchidan, investitsiyalarning YaIMdagi ulushi bilan YaIM real o'sish sur'ati o'rtasidagi dinamik bog'liqlik o'rganildi; ikkinchidan, iqtisodiyotni moliyalashtirish manbalari tarkibidagi o'zgarishlar tahlil qilindi.

1-jadval. Investitsiyalarning YaIMdagi ulushi va YaIM real o'sish sur'ati dinamikasi

Ko'rsatkich	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Investitsiyalar / YaIM nisbati, %	23,8	21,4	26,7	29,3	32,1	34,6
YaIM real o'sish sur'ati, %	5,8	1,9	7,4	5,7	6,3	6,5
Bank kredit portfeli o'sishi, %	14,2	9,6	18,3	20,1	22,4	19,8



1-rasm. Investitsiyalarning YaIMdagi ulushi va YaIM real o'sish sur'ati dinamikasi (2019–2024-yy., shartli ma'lumotlar)

1-jadval va 1-rasmda keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2019–2024-yillar mobaynida investitsiyalarning YaIMdagi ulushi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 23,8 foizdan 34,6 foizgacha oshgan. Bu ko'rsatkich bilan YaIM real o'sish sur'ati o'rtasida ijobiy, ammo notekis bog'liqlik kuzatiladi




(taxminiy korrelyatsiya koeffitsiyenti $r \approx 0,71$). 2020-yilda pandemiya sharoitida investitsiyalar ulushining ham, YaIM o'sish sur'atining ham keskin pasayishi moliyaviy resurslar oqimi bilan real iqtisodiy faoliyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yaqqol namoyish etadi. Shu bilan birga, investitsiyalar ulushi bilan YaIM o'sishi o'rtasidagi bog'liqlik vaqt lag'iga ega ekanligi ham e'tiborga olinishi lozim — investitsiya loyihalarining samarasi odatda bir necha yildan so'ng real sektorda namoyon bo'ladi.

2-jadval. Iqtisodiyotni moliyalashtirish manbalari tarkibining o'zgarishi

Moliyalashtirish manbai	2019-yil ulushi, %	2024-yil ulushi, %	O'zgarish, foiz punkti
Tijorat banklari kreditlari	28,4	24,6	-3,8
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	22,1	27,3	+5,2
Davlat byudjeti mablag'lari	31,5	24,8	-6,7
Korxonalarning o'z mablag'lari	15,8	18,9	+3,1
Qimmatli qog'ozlar bozori	2,2	4,4	+2,2

2-rasm. Iqtisodiyotni moliyalashtirish manbalari tarkibining o'zgarishi (shartli ma'lumotlar)



2-rasm. Iqtisodiyotni moliyalashtirish manbalari tarkibining o'zgarishi (shartli ma'lumotlar)

2-jadval va 2-rasmدا keltirilgan tahlil moliyalashtirish manbalari tarkibida sezilarli tarkibiy siljish yuz berganligini ko'rsatadi. Davlat byudjeti mablag'lari va tijorat banklari kreditlarining ulushi mos ravishda 6,7 va 3,8 foiz punktga kamaygan bo'lsa, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, korxonalarning o'z mablag'lari hamda qimmatli qog'ozlar bozori ulushi ortgan. Bu tendensiya iqtisodiyotni moliyalashtirishda davlat ishtirokining nisbatan qisqarishi va xususiy hamda xorijiy



manbalarning ahamiyati ortib borayotganidan dalolat beradi — bu, o'z navbatida, moliyaviy resurslarning diversifikatsiyalashuvi va bozor mexanizmlarining chuqurlashuvi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, qimmatli qog'ozlar bozori ulushining hamon past darajada (4,4%) qolishi milliy fond bozorining rivojlanish salohiyati to'liq ishga solinmaganligini ko'rsatadi. Xalqaro tajriba shuni tasdiqlaydiki, rivojlangan qimmatli qog'ozlar bozori uzoq muddatli investitsiya resurslarini jalb qilishning muhim vositasi bo'lib, uning ulushini oshirish iqtisodiyotni moliyalashtirish manbalarini yanada diversifikatsiya qilish va bank tizimiga bog'liqlikni kamaytirish imkonini beradi.

Umuman olganda, tahlil natijalari moliyaviy resurslarning hajmi va tarkibi iqtisodiy o'sish sur'atiga va uning barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Ayni paytda, moliyaviy resurslarning shunchaki hajmi emas, balki ularning tarkibiy tuzilishi, taqsimlanish samaradorligi va institutsional sifat bilan uyg'unligi barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning hal qiluvchi sharti hisoblanadi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, moliyaviy resurslar iqtisodiy o'sishning muhim moddiy asosi bo'lib, ularning yetarli hajmda va samarali taqsimlanishi investitsion faollikni, texnologik yangilanishni hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlaydi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, moliyaviy rivojlanishning ta'siri chiziqli emas — uning me'yordan ortiqcha darajasi, aksincha, ekologik va institutsional muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ikkinchidan, o'tkazilgan tahlil investitsiyalarning YaIMdagi ulushi bilan YaIM real o'sish sur'ati o'rtasida ijobiy, ammo vaqt lag'iga ega bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi. Bu esa investitsiya siyosatini uzoq muddatli istiqbolda rejalashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, moliyalashtirish manbalari tarkibidagi tahlil davlat ulushining qisqarishi va xususiy hamda xorijiy manbalarning kengayishi tendensiyasini aniqladi, biroq qimmatli qog'ozlar bozorining ulushi hamon past darajada qolmoqda, bu esa milliy fond bozorini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Amaliy tavsiya sifatida quyidagilar taklif etiladi: iqtisodiyotni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, xususan qimmatli qog'ozlar bozori va institutsional investorlar ulushini oshirish; investitsiya loyihalarini tanlashda ularning uzoq muddatli barqarorlikka ta'sirini baholovchi mezonlarni joriy etish; moliyaviy institutlar faoliyatini real sektor ehtiyojlari bilan yanada uyg'unlashtirish. Kelgusi tadqiqotlarda moliyaviy resurslarning tarmoq va hudud kesimidagi taqsimlanish samaradorligini chuqur o'rganish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Цифровизация финансового сектора экономики: проблемы и перспективы // КиберЛенинка. — 2023.



2. Levine R. Finance and Growth: Theory and Evidence // NBER Working Paper. — 2005.
3. Role of financial development for sustainable economic development in low middle income countries // ScienceDirect (Finance Research Letters). — 2022.
4. Revisit the role of financial development on economic growth, human development, and sustainable development in higher-income countries // ScienceDirect. — 2025.
5. The impact of financial inclusion on sustainable development: Evidence from BICS economies // ScienceDirect. — 2025.
6. Zhao et al. Economic Growth and Sustainable Development: The Role of Financial Inclusion, FinTech, Eco-Innovation, and Economic Complexity // Sustainable Development (Wiley). — 2026.
7. Financial development, resource richness, eco-innovation, and sustainable development: Does geopolitical risk matter? // ScienceDirect (Resources Policy). — 2023.
8. Moliyaviy resurslarning tahlili va uning korxona istiqbolidagi roli // ResearchGate. — 2023.
9. Davlat sektorida moliyaviy nazorat: muammolar va rivojlanish istiqbollari // ResearchGate. — 2024.
10. Hududlarni barqaror iqtisodiy rivojlantirish va moliyaviy salohiyatini oshirish // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil jurnali. — 2025. — Mart son.



BAZEL IRRBB TALABLARI ASOSIDA BANKLARDA FOIZ RISKI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH

Xakkulov Akbar Uralovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: akbarhaqqulov949@gmail.com

Annotatsiya. Tezisdagi Bazel qo'mitasining bank portfelidagi foiz riski (IRRBB) talablari asosida O'zbekiston tijorat banklarida foiz riskini tartibga solish va nazorat qilish amaliyoti baholangan. Milliy me'yoriy talablar Bazel standartlari bilan qiyoslanib, sof foizli daromad (NII), kapitalning iqtisodiy qiymati (EVE), standart foiz shoklari, xulq-atvoriy modellar va nazorat organining chetga chiqish testi bo'yicha mavjud farqlar aniqlangan. Tadqiqot natijasida foiz shoklarini valyutalar bo'yicha kalibrlash, yagona nazorat hisobotlarini joriy etish, ichki modellarni tekshirish va IRRBB natijalarini kapital talablari bilan bog'lashga asoslangan takomillashtirilgan nazorat mexanizmi taklif etilgan.

Kalit so'zlar: Bazel qo'mitasi, bank portfelidagi foiz riski, IRRBB, prudensial nazorat, sof foizli daromad, kapitalning iqtisodiy qiymati, stress-test, nazorat organining chetga chiqish testi.

Kirish

Tijorat banklari faoliyatida aktivlar va majburiyatlarning muddatlari, valyutalari hamda foiz stavkalarini qayta belgilash davrlari o'rtasidagi nomutanosiblik foiz riskini yuzaga keltiradi. Bozor foiz stavkalarining o'zgarishi bankning foizli daromadlari va xarajatlariga, moliyaviy vositalar qiymatiga hamda kapital yetarliligiga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, uzoq muddatli qat'iy stavkadagi kreditlarni qisqa muddatda qayta narxlanadigan depozitlar va boshqa jalb qilingan mablag'lar hisobiga moliyalashtirish bankning sof foizli daromadi va kapitalida sezilarli yo'qotishlar yuzaga kelish ehtimolini oshiradi.

Bank portfelidagi foiz riski (IRRBB) foiz stavkalarining salbiy o'zgarishi natijasida bank kapitali va daromadlarining joriy yoki kelgusi qiymati pasayishi ehtimolini ifodalaydi. Uning asosiy manbalariga qayta narxlash muddatlari nomutanosibligi, daromadlilik egri chizig'i shaklining o'zgarishi, turli moliyaviy vositalar stavkalari o'rtasidagi bazis tafovuti hamda kreditlarni oldindan so'ndirish va depozitlarni muddatidan avval qaytarib olish bilan bog'liq opsiya xususiyatlari kiradi. Bazel qo'mitasi IRRBBni kapital talablarining ikkinchi ustuni doirasida nazorat qilinishi lozim bo'lgan muhim bank riski sifatida belgilaydi [1].

Bazel talablariga ko'ra, banklar IRRBBni alohida aniqlashi, baholashi, monitoring qilishi va cheklashi lozim. Kuzatuv kengashi bankning foiz riski bo'yicha risk-appetitini tasdiqlashi, ichki limitlarni belgilashi va riskni boshqarish tizimi samaradorligini nazorat qilishi kerak. Foiz riskining qisqa muddatli ta'siri sof



foizli daromad (NII), uzoq muddatli ta'siri esa kapitalning iqtisodiy qiymati (EVE) orqali baholanadi. Ushbu ko'rsatkichlarni birgalikda qo'llash foiz stavkalari o'zgarishining bank daromadlari va kapital holatiga ta'sirini kompleks aniqlash imkonini beradi.

Bazel qo'mitasi 2024 yilda IRRBB bo'yicha standart foiz shoklarini qayta kalibrladi. Yangilangan talablar 2026 yil 1 yanvardan kuchga kirib, kapitalning iqtisodiy qiymati uchun oltita va sof foizli daromad uchun ikkita standart shok ssenariysini qo'llashni nazarda tutadi. Bunda foiz stavkalarining parallel oshishi va pasayishi, qisqa muddatli stavkalar shoki, shuningdek, daromadlilik egri chizig'ining tiklashishi va tekislanishi hisobga olinadi [2]. Mazkur o'zgarishlar banklar va nazorat organlaridan foiz riskini baholash modellari, shok parametrlari va ichki limitlarni yangi bozor sharoitlariga muvofiqlashtirishni talab qiladi.

Banklarda IRRBBni samarali boshqarish faqat ichki hisob-kitoblar bilan cheklanmaydi. Nazorat organi banklarning ichki o'lchash tizimi, risk-appetiti, foiz shoklari natijalari, xulq-atvoriy farazlari va kapital yetarliligini muntazam baholashi zarur. Agar bankning kapital iqtisodiy qiymati yoki sof foizli daromadi belgilangan chegaradan ortiq kamaysa, nazorat organi risk pozitsiyasini qisqartirish, ichki modellarni takomillashtirish, qo'shimcha kapital shakllantirish yoki boshqa tuzatish choralarini belgilashi mumkin. Shu jihatdan nazorat organining chetga chiqish testi ortiqcha foiz riskiga ega banklarni aniqlashning muhim vositasi hisoblanadi.

O'zbekiston bank tizimida kredit portfelining katta qismi uzoq muddatli kreditlardan iboratligi, depozitlar va boshqa resurslarning qayta narxlanish davri nisbatan qisqaligi hamda milliy va xorijiy valyutalardagi foiz stavkalari dinamikasining farqlanishi IRRBBni tartibga solish ahamiyatini oshiradi. Foiz riskini faqat umumiy prudensial koeffitsientlar yoki amaldagi moliyaviy natijalar asosida baholash kelgusi foiz shoklarining bank daromadi va kapitaliga ta'sirini to'liq ifodalamaydi. Shuning uchun banklar hisobotida qayta narxlanish tafovuti, NII va EVE sezgirligi, standart stress-ssenariylar natijalari hamda asosiy xulq-atvoriy farazlar aks ettirilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan 2025–2028 yillarda banklarni tartibga solish va nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"da Bazel IIIning ikkinchi va uchinchi ustunlarini to'liq joriy etish, riskka asoslangan bank nazoratini rivojlantirish, korporativ boshqaruv va risklarni boshqarish tizimlariga qo'yiladigan talablarni kuchaytirish belgilangan [3]. Mazkur vazifalar bank portfelidagi foiz riskini baholash va nazorat qilishning milliy mexanizmini Bazel IRRBB tamoyillariga muvofiq takomillashtirishni taqozo etadi.

Adabiyotlar sharhi

Bazel qo'mitasining bank portfelidagi foiz riski bo'yicha standarti IRRBBni tartibga solish va nazorat qilishning asosiy xalqaro uslubiy manbasi hisoblanadi. Unda foiz riskini aniqlash, baholash, monitoring qilish va cheklash bo'yicha banklar hamda nazorat organlarining vazifalari belgilangan. Standart foiz riskini sof foizli daromad (NII) va kapitalning iqtisodiy qiymati (EVE) asosida birgalikda baholashni talab qiladi. Shuningdek, kuzatuv kengashining javobgarligi, risk-appetit, ichki



limitlar, xulq-atvoriy farazlar, modellarni mustaqil tekshirish va axborotlarni ochiqlash masalalari qamrab olingan [1]. Mazkur standartning muhim jihati foiz riskini faqat bankning ichki boshqaruv ob'ekti emas, balki kapital va daromad barqarorligiga ta'sir qiluvchi prudensial nazorat ob'ekti sifatida belgilaganidir.

Bazel qo'mitasining 2024 yilgi hujjatida IRRBB bo'yicha standart foiz shoklari qayta kalibrlangan. Yangilangan yondashuvda har bir muhim valyuta bo'yicha foiz stavkalarining tarixiy o'zgaruvchanligi va daromadlilik egri chizig'ining turli muddat nuqtalari hisobga olingan. Kapitalning iqtisodiy qiymatini baholash uchun oltita, sof foizli daromadni baholash uchun ikkita standart ssenariy belgilangan [2]. Ushbu yondashuv nazorat organiga banklar foiz riskini yagona ssenariylar asosida taqqoslash imkonini beradi. Biroq standart shoklarni milliy bank tizimiga joriy etishda mahalliy foiz stavkalari tarixi, valyuta bozori xususiyatlari va banklarning biznes modellari hisobga olinishi lozim.

Yevropa bank organining IRRBB va bank portfelidagi kredit spredi riski bo'yicha qo'llanmasida Bazel talablarini bank nazorati amaliyotiga tatbiq etish mexanizmlari kengaytirilgan. Qo'llanmada foiz riskini boshqarish tizimi, ichki o'lchash modellari, sof foizli daromad va kapitalning iqtisodiy qiymati bo'yicha nazorat organining chetga chiqish testlari hamda talab qilib olinguncha depozitlarni modellashtirish mezonlari belgilangan [4]. Yevropa yondashuvining muhim xususiyati mutanosiblik tamoyili hisoblanadi. Unga ko'ra, nazorat talablari bankning hajmi, operatsiyalari murakkabligi, biznes-modeli va foiz riski darajasiga muvofiq belgilanadi. Ichki o'lchash tizimi belgilangan talablarga javob bermasa, nazorat organi bankdan standartlashtirilgan yondashuvni qo'llashni talab qilishi mumkin.

C. Claußen va D. Platte kapitalning iqtisodiy qiymati hamda sof foizli daromad o'zgarishlarining foiz riskini tartibga soluvchi ko'rsatkichlar sifatidagi ishonchliligini simulyatsion usulda baholagan. Tadqiqot natijalari EVE ko'rsatkichi bankda to'plangan uzoq muddatli foiz riskini aniqlashda barqarorroq natija berishini ko'rsatgan. NII ko'rsatkichining natijalari esa amaldagi foiz stavkalari darajasi, model farazlari va baholash davriga ko'proq bog'liq bo'lgan [5]. Mualliflar xulosasi nazorat jarayonida faqat bitta ko'rsatkichga tayanish yetarli emasligini tasdiqlaydi. Shu sababli bankning qisqa muddatli daromad sezgirligi NII, uzoq muddatli iqtisodiy qiymat sezgirligi esa EVE orqali o'zaro bog'liq holda baholanishi zarur.

Bazel qo'mitasining 2023 yilgi bank inqirozlari bo'yicha hisobotida foiz riskini boshqarish, korporativ nazorat, depozitlar barqarorligini baholash va nazorat organlarining o'z vaqtida chora ko'rishi bilan bog'liq kamchiliklar banklar moliyaviy holatining keskin yomonlashishiga olib kelishi mumkinligi ko'rsatilgan [6]. Hisobot natijalari foiz riski va likvidlilik riski o'zaro bog'liqligini tasdiqlaydi. Foiz stavkalari oshganda uzoq muddatli qat'iy daromadli aktivlar qiymatining pasayishi kapitalga bosim o'tkazadi. Ayni vaqtda depozitlarning chiqib ketishi aktivlarni zarar bilan sotish zaruratini yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun nazorat organi foiz riskini alohida emas, balki likvidlilik, kapital va moliyalashtirish barqarorligi bilan birgalikda baholashi lozim.



Adabiyotlar tahlili IRRBBni nazorat qilishning xalqaro mexanizmi risk-appetit, NII va EVE bahosi, standart foiz shoklari, xulq-atvoriy modellar, ichki limitlar, nazorat organining chetga chiqish testi va tuzatish choralari qamrab olishini ko'rsatdi. Biroq ushbu talablarni O'zbekiston bank tizimiga moslashtirishda milliy va xorijiy valyutalardagi foiz stavkalari farqi, uzoq muddatli qat'iy stavkadagi kreditlar ulushi, talab qilib olinguncha depozitlar xususiyati va banklar biznes modellarining turlichaligi hisobga olinishi zarur. Milliy amaliyotda IRRBBni tartibga solish va nazorat qilishning o'zaro bog'langan bosqichlari, baholash mezonlari hamda risk chegaralari buzilganda qo'llaniladigan choralar tizimini shakllantirish masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan. Mazkur tadqiqot ushbu uslubiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar

O'zbekistonda bank portfelidagi foiz riskini tartibga solishning huquqiy asoslari so'nggi yillarda Bazel talablariga yaqinlashtirildi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to'g'risida"gi nizomiga 2025 yilda bank portfelida yuzaga keluvchi foiz riskini boshqarish bo'yicha alohida talablar kiritildi [7].

Nizomga muvofiq, banklarda foiz riski bo'yicha risk-appetit, boshqarish siyosati, baholash va monitoring vositalari, stress-test tartibi hamda hisobot tizimi shakllantirilishi lozim. Foiz riskining qayta narxlash nomutanosibli, bazis riski va opsiya xususiyati bilan bog'liq risk kabi asosiy manbalari ajratilgan. Bu jihatlar Bazel qo'mitasining IRRBB bo'yicha talablariga mazmunan muvofiq keladi.

Milliy talablarda bank portfelidagi foiz riskini baholash uchun ikkita asosiy ko'rsatkich belgilangan. Birinchisi, bozor foiz stavkalari o'zgarishi natijasida aktivlar va majburiyatlar joriy sof qiymatining o'zgarishi orqali bank kapitaliga ta'sirni baholashdir. Ikkinchisi, foiz stavkalari o'zgarishining bank sof foizli daromadiga ta'sirini aniqlashdan iborat. Demak, milliy me'yoriy asosda kapitalning iqtisodiy qiymati (EVE) va sof foizli daromad (NII) yondashuvlarini birgalikda qo'llash nazarda tutilgan.

Stress-test uchun quyidagi oltita ssenariy belgilangan:

1. Barcha foiz stavkalarining oshishi.
2. Barcha foiz stavkalarining pasayishi.
3. Qisqa muddatli stavkalarining pasayishi va uzoq muddatli stavkalarining oshishi.
4. Qisqa muddatli stavkalarining oshishi va uzoq muddatli stavkalarining pasayishi.
5. Qisqa muddatli foiz stavkalarining keskin oshishi.
6. Qisqa muddatli foiz stavkalarining keskin pasayishi.

Ushbu ssenariylar Bazel qo'mitasining parallel o'sish, parallel pasayish, daromadlilik egri chizig'ining tiklashishi, tekislanishi va qisqa muddatli stavkalar shoki ssenariylariga muvofiq keladi. Bu milliy tartibga solish tizimida IRRBBni stress-testlashning zarur ssenariy asoslari shakllanganini ko'rsatadi.



Shu bilan birga, Bazel IRRBB talablari va milliy me'yoriy asoslarni qiyosiy baholash ayrim uslubiy hamda nazoratga oid masalalarni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi.

1-jadval

Bazel IRRBB talablari va O'zbekistondagi tartibga solish amaliyotining qiyosiy bahosi

Baholash yo'nalishi	Bazel IRRBB talabi	O'zbekistondagi amaldagi holat	Baholash natijasi
Korporativ boshqaruv	Kuzatuv kengashi javobgarligi, risk-appetit va ichki limitlar	Risk-appetit, boshqarish siyosati va vazifalar taqsimoti belgilangan	Muvofiq
Foiz riski manbalari	Qayta narxlash, bazis va opsiya riski	Mazkur uchta risk manbasi qamrab olingan	Muvofiq
Baholash ko'rsatkichlari	NII va EVE ni birgalikda baholash	Sof foizli daromad va joriy sof qiymatning kapitalga ta'siri belgilangan	Asosan muvofiq
Stress-senariylar	EVE uchun oltita, NII uchun ikkita standart senariy	Olti turdagi foiz shoki belgilangan	Asosan muvofiq
Shoklarni kalibrlash	Valyutalar bo'yicha miqdoriy shoklar va muddat nuqtalari	Ssenariy turlari belgilangan, ammo yagona miqdoriy shoklar aniqlashtirilmagan	Qisman muvofiq
Xulq-atvoriy farazlar	Talab qilib olinguncha depozitlar, oldindan so'ndirish va muddatidan avval qaytarishni modellashtirish	IRRBB bo'yicha alohida modellashtirish mezonlari batafsil belgilanmagan	Takomillashtirish zarur
Nazorat organining chetga chiqish testi	EVENing birinchi darajali kapitalga nisbati bo'yicha 15 foizlik chegara	Yagona miqdoriy nazorat chegarasi aniq belgilanmagan	Joriy etish zarur
Ichki modellarni tekshirish	Mustaqil validatsiya, sezgirlik tahlili va retrospektiv tekshirish	Vosita va usullarni belgilash talab etilgan, IRRBB modellarini tekshirish tartibi to'liq ochib berilmagan	Takomillashtirish zarur



Hisobot va axborotlarni ochiqlash	Yagona nazorat hisoboti va uchinchi ustun bo'yicha ochiq ma'lumotlar	Hisobot mazmuni belgilangan, shakli va davriyligi bank organlari tomonidan aniqlanadi	Qisman muvofiq
Kapital bilan bog'lash	IRRBB natijalarini ICAAP va ikkinchi ustun doirasida hisobga olish	Kapitalga ta'sir baholanadi, ammo qo'shimcha kapital talabini belgilash mexanizmi rivojlanish bosqichida	Takomillashtirish zarur

Manba: [1], [2], [3] va [7] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Qiyosiy tahlil milliy me'yoriy asosda IRRBBni boshqarishning asosiy elementlari mavjudligini ko'rsatadi. Korporativ boshqaruv, risk-appetit, foiz riski manbalari, NII va EVE bahosi hamda standart stress-ssenariylar bo'yicha yuqori darajadagi mazmuniy muvofiqlikka erishilgan. Asosiy farqlar talablarni miqdoriy aniqlash, banklar natijalarini o'zaro taqqoslash va nazorat choralari risk darajasiga bog'lashda namoyon bo'ladi.

Birinchi muammo foiz shoklarining miqdoriy parametrlari bilan bog'liq. Amaldagi nizomda stress-ssenariylarning turlari belgilangan, ammo milliy va xorijiy valyutalar bo'yicha qo'llaniladigan shoklar miqdori, daromadlilik egri chizig'ining asosiy muddat nuqtalari va baholash davri yagona tartibda aniqlashtirilmagan. Natijada banklar bir xil ssenariy nomidan foydalangan holda turli shok miqdorlari va model farazlarini qo'llashi mumkin. Bu esa banklar kesimidagi natijalarni taqqoslash imkoniyatini cheklaydi.

Shu sababli Markaziy bank tomonidan milliy valyuta va asosiy xorijiy valyutalar uchun standart foiz shoklari jadvalini tasdiqlash taklif etiladi. Shoklar har bir valyutaning tarixiy o'zgaruvchanligi, foiz stavkalari darajasi va muddat tarkibidan kelib chiqib kalibrlanishi lozim. Standart shoklar kamida uch yilda bir marta, foiz muhiti keskin o'zgarganda esa navbatdan tashqari qayta ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchi muammo nazorat organining chetga chiqish testi bilan bog'liq. Bazel talablarida standart shoklar ta'sirida kapitalning iqtisodiy qiymati kamayishining birinchi darajali kapitalga nisbati 15 foizdan oshgan bank yuqori IRRBBga ega bank sifatida nazorat tekshiruviga jalb etiladi.

Banklar uchun sof foizli daromadning foiz shoklariga sezgirlik darajasi 10 foizdan oshganda erta ogohlantirish choralari, 20 foizdan oshganda esa yuqori riskka nisbatan tuzatish choralari qo'llash taklif etiladi. Ushbu chegaralar bankning biznes-modeli, daromadlar barqarorligi va kapital zaxirasiga muvofiq tabaqalashtirilishi mumkin.

Uchinchi muammo talab qilib olinguncha depozitlar va mijozlar xulq-atvorini modellashtirish bilan bog'liq. Mazkur depozitlarning shartnomaviy muddati mavjud emas, ammo ularning muayyan qismi bankda uzoq vaqt saqlanishi mumkin. Ularni



to'liq qisqa muddatli yoki to'liq barqaror resurs sifatida baholash EVE va NII natijalarini buzib ko'rsatadi. Shuning uchun banklar depozitlarni barqaror va o'zgaruvchan qismlarga ajratishi, depozit stavkasining bozor stavkalariga moslashish darajasini aniqlashi hamda mablag'larning chiqib ketish ehtimolini tarixiy ma'lumotlar asosida baholashi lozim.

Kreditlarni oldindan so'ndirish va muddatli depozitlarni muddatidan avval qaytarish ehtimoli ham alohida modellashtirilishi kerak. Mazkur modellar kamida har yili mustaqil validatsiyadan o'tkazilishi, natijalar haqiqiy mijozlar xulq-atvori bilan taqqoslanishi va bozor sharoiti keskin o'zgarganda qayta kalibrlanishi zarur.

To'rtinchi muammo IRRBB hisobotlarini standartlashtirish bilan bog'liq. Amaldagi nizomda hisobotlarning shakli, davriyligi va hajmi kuzatuv kengashi yoki bank boshqaruvi tomonidan belgilanishi nazarda tutilgan. Bu ichki boshqaruv uchun moslashuvchanlik yaratadi, ammo Markaziy bank darajasida banklar natijalarini gorizonttal taqqoslashni qiyinlashtirishi mumkin.

Shu munosabat bilan quyidagi yagona nazorat hisobotlari joriy etilishi taklif etiladi:

1. IRRBB-1 shakli, aktivlar va majburiyatlarning qayta narxlanish tafovuti, muddatlar va valyutalar kesimida.

2. IRRBB-2 shakli, oltita EVE va ikkita NII shoki natijalari.

3. IRRBB-3 shakli, talab qilib olinguncha depozitlar, kreditlarni oldindan so'ndirish va depozitlarni muddatidan avval qaytarish bo'yicha model farazlari.

4. IRRBB-4 shakli, ichki limitlarning buzilishi, ko'rilgan choralar va riskni kamaytirish rejasi.

Mazkur hisobotlarni har chorakda taqdim etish, tizimli ahamiyatga molik yoki yuqori foiz riskiga ega banklar uchun esa oylik monitoringni joriy qilish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-2028 yillarga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi"da bozor riski bo'yicha nazorat hisobotlarini kengaytirish, IRRBBni baholash va kamaytirish talablariga rioya etilishini nazorat qilish, foiz riskini baholash modellari ishonchliligini tekshirish hamda Bazelning ikkinchi ustunini joriy etish belgilangan [3]. Bu qiyosiy tahlilda aniqlangan yo'nalishlarning milliy nazorat tizimi uchun amaliy ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijasida bank va nazorat organi darajalarini birlashtiruvchi quyidagi IRRBB nazorat mexanizmi taklif etildi:

1. Ma'lumotlarni shakllantirish. Bank barcha foizga sezgir aktivlar, majburiyatlar va balansdan tashqari pozitsiyalarni qayta narxlanish muddatlari, valyutalari va stavka turlari bo'yicha guruhlaydi.

2. Riskni baholash. Davriy va jamlanma GAP, NII sezgirligi hamda EVE o'zgarishi har bir muhim valyuta bo'yicha alohida hisoblanadi.

3. Stress-testdan o'tkazish. Milliy va Bazel standart ssenariylari, bankning o'ziga xos ssenariylari hamda teskari stress-test qo'llaniladi.



4. Ichki nazorat. Natijalar risk-appetit va ichki limitlar bilan taqqoslanadi. Limit buzilishi aktivlar va majburiyatlarni boshqarish qo‘mitasiga hamda kuzatuv kengashiga taqdim etiladi.

5. Prudensial nazorat. Markaziy bank SOT_{EVE} , SOT_{NII} , ichki modellar sifati va belgilangan limitlarning buzilishini banklar kesimida baholaydi.

6. Tuzatish choralari. Risk darajasiga qarab bankdan pozitsiyalarni qisqartirish, xedjirlash, ichki modellarni takomillashtirish yoki qo‘shimcha kapital shakllantirish talab qilinadi.

Mazkur tamoyil NII yoki EVE ko‘rsatkichlaridan birining maqbul qiymati boshqa yo‘nalishdagi yuqori foiz riskini yashirib qolishining oldini oladi.

2-jadval

Foiz riski bo‘yicha taklif etilayotgan nazorat matritsasi

Nazorat darajasi	EVE bo‘yicha ko‘rsatkich	NII sezgirli	Nazorat chorasi
Maqbul	10 foizgacha	5 foizgacha	Odatiy choraklik monitoring
Kuchaytirilgan nazorat	10,1-15,0 foiz	5,1-10,0 foiz	Oylik hisobot va tuzatish rejasi
Yuqori risk	15 foizdan yuqori	10,1-20,0 foiz	Chuqur nazorat tekshiruvi, pozitsiyalarni cheklash va kapital ta’sirini baholash
Kritik risk	20 foizdan yuqori	20 foizdan yuqori	Foiz pozitsiyalarini qisqartirish, qo‘shimcha kapital va boshqa majburiy choralar

Manba: Bazel IRRBB talablari asosida muallif ishlanmasi.

Agar bankning ichki o‘lchash modeli qoniqarsiz deb baholansa, bankning nazorat darajasi bir pog‘ona yuqori toifaga o‘tkazilishi lozim. Bu yondashuv hisoblangan risk miqdori bilan birga ma’lumotlar sifati, model farazlari va boshqaruv tizimi ishonchliligini ham hisobga oladi.

Tahlil natijalari O‘zbekistonda IRRBBni tartibga solishning asosiy me’yoriy elementlari shakllanganini ko‘rsatdi. Keyingi bosqichda standart shoklarni miqdoriy kalibrlash, nazorat organining chetga chiqish testini joriy etish, xulq-atvoriy modellarni tekshirish, yagona hisobot shakllarini belgilash va IRRBB natijalarini kapital talablari bilan bog‘lash zarur. Taklif etilgan mexanizm mazkur vazifalarni bankning ichki boshqaruvi va Markaziy bankning riskka asoslangan nazorati doirasida o‘zaro muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda bank portfelidagi foiz riskini tartibga solish va nazorat qilishning me’yoriy asoslari Bazel IRRBB talablariga bosqichma-bosqich muvofiqlashtirilayotganini ko‘rsatdi. Amaldagi talablarda foiz riski bo‘yicha risk-appetit, boshqarish siyosati, ichki chegaralar, stress-testlar va hisobot tizimini shakllantirish nazarda tutilgan. Qayta narxlash, bazis va opsiyon riski ajratilgan



hamda foiz stavkalari o'zgarishining sof foizli daromad va bank kapitaliga ta'sirini baholash belgilangan [7].

Milliy talablarda keltirilgan oltita stress-ssenariy Bazel qo'mitasining IRRBB yondashuviga mazmunan muvofiq keladi. Ularda foiz stavkalarining parallel oshishi va pasayishi, daromadlilik egri chizig'ining tiklashishi va tekislanishi hamda qisqa muddatli stavkalar shoklari qamrab olingan. Demak, O'zbekiston banklarida IRRBBni aniqlash va baholash uchun zarur asosiy me'yoriy elementlar shakllangan.

Biroq mavjud talablar banklar natijalarini yagona mezonlar asosida taqqoslash va aniqlangan riskka nisbatan nazorat choralari belgilash nuqtai nazaridan takomillashtirilishi zarur. Amalda stress-ssenariylarning miqdoriy parametrlari, valyutalar bo'yicha standart shoklar, NII va EVenii hisoblash davri, xulq-atvoriy farazlar hamda ichki modellarni tekshirish tartibi to'liq birxillashtirilmagan. Shuningdek, nazorat organining chetga chiqish testi, IRRBB bo'yicha yagona hisobot shakllari va risk darajasini qo'shimcha kapital talablari bilan bog'lash mexanizmi rivojlantirilishi lozim.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

1. IRRBBni baholashning milliy standartlashtirilgan metodologiyasini joriy etish.

Markaziy bank tomonidan sof foizli daromad va kapitalning iqtisodiy qiymatini hisoblash bo'yicha yagona uslubiy qo'llanma ishlab chiqilishi lozim. Unda pul oqimlarini muddat oraliqlariga joylashtirish, diskont stavkalarini tanlash, baholash davri va muhim valyutalarni aniqlash mezonlari belgilanishi kerak. Bu banklar natijalarini o'zaro taqqoslash imkoniyatini oshiradi.

2. Valyutalar bo'yicha standart foiz shoklarini kalibrlash.

Milliy valyuta va banklar uchun ahamiyatli xorijiy valyutalar bo'yicha foiz shoklari alohida belgilanishi zarur. Shoklar foiz stavkalarining tarixiy o'zgaruvchanligi va daromadlilik egri chizig'ining muddat tarkibi asosida shakllantirilishi kerak. Ularni kamida uch yilda bir marta, bozor sharoiti keskin o'zgarganda esa navbatdan tashqari qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

3. Nazorat organining chetga chiqish testini joriy etish.

Standart shoklar ta'sirida kapitalning iqtisodiy qiymati kamayishining birinchi darajali kapitalga nisbati 15 foizdan oshgan bank nazorat organining chetga chiqish testi bo'yicha yuqori riskli bank sifatida chuqur baholanishi lozim. Sof foizli daromad sezgirliigi 10 foizdan oshganda erta ogohlantirish, 20 foizdan oshganda esa tuzatish choralari qo'llash taklif etiladi.

Nazorat darajasini belgilashda EVE, NII va ichki modellar ishonchiligi bo'yicha eng yuqori risk darajasi asos qilib olinishi kerak. Bu bir ko'rsatkichning maqbul natijasi boshqa yo'nalishdagi yuqori riskni yashirib qolishining oldini oladi.

4. IRRBB bo'yicha yagona nazorat hisobotlarini shakllantirish.

Tijorat banklari tomonidan Markaziy bankka quyidagi hisobotlar taqdim etilishi maqsadga muvofiq:

1. Aktivlar va majburiyatlarning qayta narxlanish tafovuti.

2. Olti turdagi EVE va ikki turdagi NII shoklari natijalari.



3. Talab qilib olinguncha depozitlar va kreditlarni oldindan so'ndirish bo'yicha xulq-atvoriy farazlar.

4. Ichki chegaralarning buzilishi va ko'rilgan tuzatish choralari.

Hisobotlar har chorakda, tizimli ahamiyatga molik va yuqori foiz riskiga ega banklar tomonidan esa har oyda taqdim etilishi lozim.

5. Xulq-atvoriy modellarni ishlab chiqish va mustaqil tekshirish.

Talab qilib olinguncha depozitlar barqaror va o'zgaruvchan qismlarga ajratilishi kerak. Depozit stavkalarining bozor stavkalariga moslashish darajasi, mablag'larning chiqib ketishi, kreditlarni oldindan so'ndirish va muddatli depozitlarni muddatidan avval qaytarish ehtimoli tarixiy ma'lumotlar asosida baholanishi lozim.

IRRBB modellari kamida har yili mustaqil validatsiyadan o'tkazilishi zarur. Model natijalari haqiqiy ko'rsatkichlar bilan taqqoslanishi, asosiy farazlar bo'yicha sezgirlik tahlili o'tkazilishi va modeldagi har bir o'zgarish hujjatlashtirilishi kerak. Ichki o'lchash tizimi qoniqarsiz deb topilganda, bank standartlashtirilgan yondashuvdan foydalanishi lozim.

6. Foiz riskini kapital monandligini ichki baholash jarayoni bilan bog'lash.

Banklar IRRBB natijalarini kapital monandligini ichki baholash jarayoniga kiritishi kerak. Foiz riski yuqori bo'lgan holatda kapital rejasiga qo'shimcha zaxira shakllantirish, dividend to'lovlarini cheklash, uzoq muddatli qat'iy stavkadagi aktivlar o'sishini sekinlashtirish yoki riskni xedjirlash choralari kiritilishi maqsadga muvofiq.

Nazorat organi bankning foiz riski kapitali va daromadiga nomutanosib deb baholanganda risk pozitsiyalarini qisqartirish, ichki modellarni takomillashtirish yoki qo'shimcha kapital shakllantirish bo'yicha majburiy talablar belgilashi lozim. Mazkur yondashuv Bazelning ikkinchi ustunini milliy bank nazoratiga to'liq joriy etishga xizmat qiladi [3].

7. IRRBB bo'yicha axborotlarni ochiqlash talablarini kuchaytirish.

Banklar yillik hisobotlarida NII va EVE sezgirligi, asosiy foiz shoklari natijalari, talab qilib olinguncha depozitlarni modellashtirish farazlari hamda foiz riskini kamaytirish choralarini ochiqlashi lozim. Ochiq ma'lumotlarning yagona shakli banklar o'rtasida taqqoslash imkoniyatini oshiradi va bozor intizomini mustahkamlaydi.

Taklif etilgan mexanizm bankning ichki boshqaruvi va Markaziy bank nazoratini yagona jarayonga birlashtiradi. U ma'lumotlarni shakllantirish, NII va EVE ni baholash, stress-testdan o'tkazish, nazorat organining chetga chiqish testini qo'llash va tuzatish choralarini belgilash bosqichlarini qamrab oladi. Mazkur choralarning amalga oshirilishi tijorat banklarida foiz riskini erta aniqlash, banklar natijalarini taqqoslash va kapital hamda sof foizli daromad barqarorligini ta'minlash imkoniyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Basel Committee on Banking Supervision. Interest Rate Risk in the Banking Book. Basel: Bank for International Settlements, 2016.



2. Basel Committee on Banking Supervision. Recalibration of Shocks for Interest Rate Risk in the Banking Book. Basel: Bank for International Settlements, 2024.

3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2025–2028 yillarda banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan “Yo‘l xaritasi”. Toshkent, 2025.

4. European Banking Authority. Guidelines on Policies and Controls for the Effective Management of Interest Rate Risk Arising from Non-Trading Book Activities and Credit Spread Risk Arising from Non-Trading Book Activities. EBA/GL/2022/14. Paris, 2022.

5. Claußen C., Platte D. Evaluating the Validity of Regulatory Interest Rate Risk Measures: A Simulation Approach // Journal of Banking & Finance. 2023. Vol. 154. Article 106933.

6. Basel Committee on Banking Supervision. Report on the 2023 Banking Turmoil. Basel: Bank for International Settlements, 2023.

7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining “Banklar va banklar guruhlarining tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2023 yil 7 martdagi 4/11-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2023 yil 18 aprelda 3427-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.



RAQAMLI BANK XIZMATLARINING TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGIGA TA'SIRI

Yangiboev Rustam Berdiyarovich
*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi*
E-mail: gluttet@gmail.com

Annotatsiya. Tezisda raqamli bank xizmatlarining tijorat banklari likvidliligiga ijobiy va salbiy ta'sir kanallari baholangan. Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar, depozitlar, yuqori likvidli aktivlar, likvidlikni qoplash me'yori koeffitsienti (LCR) va sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti (NSFR) dinamikasi tahlil qilingan. Natijalar raqamli xizmatlar odatiy sharoitda depozit bazasini kengaytirishini, stress sharoitida esa depozitlar chiqib ketishini tezlashtirishini ko'rsatgan. Talab qilib olinguncha depozitlarning 10, 20 va 30 foizlik chiqimi bo'yicha stress-test o'tkazilgan. Raqamli pul oqimlarini real vaqtda monitoring qilish, ichki limitlar, likvidlik buferi va favqulodda moliyalashtirish rejasini takomillashtirish taklif etilgan.

Kalit so'zlar: raqamli bank xizmatlari, bank likvidligi, likvidlik riski, masofaviy bank xizmatlari, depozitlar chiqimi, likvidlikni qoplash me'yori koeffitsienti, stress-test, erta ogohlantirish tizimi.

Kirish

Bank xizmatlarining raqamlashishi tijorat banklari faoliyati, mijozlar bilan munosabatlar va pul oqimlarini boshqarish mexanizmlarini o'zgartirmoqda. Mobil banking, internet-banking, onlayn depozitlar, tezkor to'lovlar va masofaviy identifikatsiya xizmatlari mijozlarga bank operatsiyalarini vaqt va hududiy cheklovlarisiz amalga oshirish imkonini beradi. Bu bank xizmatlarining ommabopligini oshiradi, operatsion xarajatlarni kamaytiradi va depozit resurslarini jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Raqamli xizmatlarning rivojlanishi bank likvidliligiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, onlayn depozitlarni ochish, hisobvaraqlarni masofadan boshqarish va mablag'larni tezkor jalb qilish banklarning resurs bazasini kengaytiradi. Raqamli texnologiyalar pul oqimlarini real vaqt rejimida kuzatish, mijozlar operatsiyalarini prognozlash va likvidlikka bo'lgan ehtiyojni aniqroq baholash imkonini ham yaratadi. Natijada bankning aktivlar va passivlarni boshqarish tizimida axborot tezligi va qaror qabul qilish samaradorligi oshadi.

Ikkinchi tomondan, raqamli kanallar orqali mablag'larni bir necha daqiqa ichida boshqa bankka o'tkazish imkoniyati depozitlarning chiqib ketish tezligini oshiradi. Bankning moliyaviy holati to'g'risidagi salbiy axborot ijtimoiy tarmoqlar va elektron axborot vositalari orqali tez tarqalgan sharoitda omonatchilarning bir vaqtda mablag'larini yechib olishi likvidlik zaxirasiga keskin bosim o'tkazishi



mumkin. Shu sababli raqamli muhitda likvidlilik riski faqat depozitlar miqdori bilan emas, balki ularning harakat tezligi, konsentratsiyasi va mijozlarning raqamli xulq-atvori bilan ham belgilanadi.

Bazel qo'mitasi bank likvidliligini bankning aktivlar o'sishini moliyalashtirish va majburiyatlarni qabul qilib bo'lmaydigan yo'qotishlarsiz o'z vaqtida bajarish qobiliyati sifatida baholaydi [1]. Mazkur qobiliyatni ta'minlash uchun bank yetarli likvidlilik zaxirasiga, barqaror moliyalashtirish manbalariga, stress-test tizimiga va favqulodda moliyalashtirish rejasiga ega bo'lishi lozim. Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti (LCR) bankning 30 kunlik stress davridagi sof pul chiqimlarini yuqori sifatli likvid aktivlar bilan qoplash imkoniyatini ifodalaydi [2].

Biroq raqamli bank xizmatlari kengaygan sharoitda depozitlarning katta qismi 30 kun ichida emas, balki bir kun yoki bir necha soat davomida chiqib ketishi mumkin. Shuning uchun an'anaviy likvidlilik ko'rsatkichlari raqamli pul oqimlarining tezligi va kunlik tebranishlarini barcha holatda to'liq aks ettirmasligi mumkin. Banklar likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti (LCR) bilan bir qatorda bir kunlik sof raqamli pul chiqimi, mobil ilovalar orqali amalga oshirilgan depozit operatsiyalari, yirik raqamli omonatchilar konsentratsiyasi va garovga qo'yilmagan likvid aktivlarni ham nazorat qilishi zarur.

2023 yildagi xalqaro bank beqarorligi raqamli texnologiyalar va axborot tarqalish tezligi likvidlilik inqirozining rivojlanish sur'atini oshirishini ko'rsatdi. Bazel qo'mitasi ushbu voqealarni global moliyaviy inqirozdan keyingi eng yirik tizimli bank bosimi sifatida baholab, depozitlar konsentratsiyasi, biznes-model, risklarni boshqarish va nazorat mexanizmlaridagi kamchiliklarga alohida e'tibor qaratgan [3]. Mazkur tajriba likvidlilik stress-testlarida raqamli kanallar orqali depozitlarning tezkor chiqib ketish ssenariylarini hisobga olish zarurligini tasdiqlaydi.

O'zbekistonda ham mobil ilovalar, onlayn to'lovlar, masofaviy depozitlar va raqamli kreditlash xizmatlari kengaymoqda. Markaziy bank ma'lumotlarida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni va raqamli to'lovlar hajmining o'sish tendensiyasi qayd etilgan [4]. Bu jarayon banklar uchun yangi depozit resurslarini jalb qilish va mijozlarga xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. Ayni vaqtda raqamli operatsiyalar hajmining oshishi kunlik likvidlilik, to'lov tizimlarining uzluksizligi, kiberrisk va depozitlarning tezkor chiqib ketishi bilan bog'liq yangi talablarni shakllantiradi.

Adabiyotlar sharhi

Bazel qo'mitasining «Likvidlilik riskini samarali boshqarish va nazorat qilish tamoyillari» hujjatida bank likvidliligi aktivlar o'sishini moliyalashtirish va majburiyatlarni qabul qilib bo'lmaydigan yo'qotishlarsiz o'z vaqtida bajarish qobiliyati sifatida ta'riflangan [1]. Qo'mita likvidlilik riskini boshqarishda riskka moyillik chegarasini belgilash, yetarli likvid aktivlar zaxirasini saqlash, pul oqimlarini muntazam baholash, stress-test o'tkazish va favqulodda moliyalashtirish rejasini ishlab chiqishni asosiy talablar sifatida belgilagan.



Mazkur tamoyillar bankning barcha mahsulotlari, operatsiyalari va biznes yo'nalishlari likvidlikka ta'sirini hisobga olishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan mobil banking, internet-banking, onlayn depozitlar va tezkor to'lovlar ham alohida likvidlik omili sifatida baholanishi lozim. Biroq 2008 yilda qabul qilingan ushbu hujjatda raqamli kanallar orqali depozitlarning bir necha soat ichida chiqib ketishi bilan bog'liq risklar alohida ko'rsatilmagan. Shu sababli unda belgilangan umumiy tamoyillarni raqamli bank muhiti xususiyatlari bilan to'ldirish zarurati mavjud.

Bazel III doirasida qabul qilingan likvidlikni qoplash me'yori koeffitsienti (LCR) bankning 30 kunlik stress sharoitidagi sof pul chiqimlarini yuqori sifatli likvid aktivlar bilan qoplash imkoniyatini baholaydi [2]. Uning asosiy vazifasi qisqa muddatli likvidlik bosimi sharoitida bankning mustaqil faoliyat yuritish qobiliyatini ta'minlashdan iborat. Koeffitsient kamida 100 foiz bo'lishi va uni hisoblashda garovga qo'yilmagan, tez pulga aylantiriladigan yuqori sifatli likvid aktivlar inobatga olinishi lozim.

Likvidlikni qoplash me'yori koeffitsienti (LCR) raqamli bank xizmatlari bilan bog'liq risklarni baholashda ham muhim ahamiyatga ega. Chunki onlayn operatsiyalar natijasida depozitlar chiqib ketishining tezlashishi 30 kunlik sof pul chiqimi miqdorini oshiradi. Biroq koeffitsientning 30 kunlik umumlashtirilgan davrga asoslanishi bir kunlik yoki kun davomidagi raqamli pul chiqimlarini to'liq ifodalamasligi mumkin. Shuning uchun uni bir kunlik raqamli sof pul chiqimi, depozitlar konsentratsiyasi va to'lovlar tezligi kabi qo'shimcha ko'rsatkichlar bilan birgalikda qo'llash maqsadga muvofiq.

Bazel qo'mitasining 2023 yilgi bank beqarorligi bo'yicha hisobotida raqamli texnologiyalar, omonatchilar o'rtasidagi aloqalar va axborot tarqalish tezligi zamonaviy bank inqirozlarining rivojlanish sur'atiga ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan [3]. 2023 yil 8–19 mart kunlari davomida jami aktivlari qariyb 900 mlrd AQSh dollariga teng bo'lgan to'rtta bankning yopilishi, maxsus boshqaruvga olinishi yoki qutqarilishi likvidlik bosimining qisqa vaqtda kuchayishi mumkinligini ko'rsatgan.

Hisobotda banklar inqirozining sabablari turlicha bo'lgani qayd etilgan. Ular qatoriga foiz riskining noto'g'ri boshqarilishi, sug'urtalanmagan depozitlarning yuqori konsentratsiyasi, biznes-modeldagi kamchiliklar va likvidlik riskining yetarli baholanmagani kiritilgan. Mobil ilovalar va elektron to'lov tizimlari omonatchilarga mablag'larni jismoniy bank ofisiga bormasdan chiqarish imkonini bergan. Natijada an'anaviy bank navbatlari o'rnini raqamli kanallar orqali amalga oshirilgan tezkor pul o'tkazmalari egallagan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisobotlarida mamlakatda masofaviy bank xizmatlari, mobil ilovalar va elektron to'lovlar ko'lami kengayib borayotgani qayd etilgan [4]. Xususan, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi mijozlar soni 2024 yil yakunida 52,9 mln nafarga yetgan. Ularning 51,4 mln nafarini jismoniy shaxslar, 1,5 mln nafarini tadbirkorlik sub'ektlari tashkil etgan. Banklarning mobil ilovalari orqali to'lov, pul o'tkazmasi, onlayn depozit, konvertatsiya va boshqa operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatlari kengaygan.

Markaziy bank ma'lumotlari raqamli bank xizmatlarining jadal rivojlanganini ko'rsatsa-da, ularning depozitlar barqarorligi va bank likvidligiga bevosita ta'sirini



alohida baholamaydi. Masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar sonining o'sishi raqamli operatsiyalar hajmini ifodalaydi, biroq raqamli kanallar orqali bankka kirgan va bankdan chiqqan depozit mablag'lari, ularning kunlik o'zgaruvchanligi hamda likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsientiga (LCR) ta'siri bo'yicha qo'shimcha tahlil talab qilinadi.

N. Koont, T. Santos va L. Zingales «Beqarorlashtiruvchi raqamli bank ko'chishlari» tadqiqotida raqamli bank xizmatlarining depozitlar barqarorligi va bankning depozit franshizasi qiymatiga ta'sirini o'rgangan [5]. Mualliflar mobil ilova va brokerlik xizmatlariga ega banklarda foiz stavkalari oshgan davrda depozitlar tezroq chiqib ketishi va depozit stavkalarining bozor stavkalariga sezgirligi yuqoriroq bo'lishini aniqlagan. Raqamli xizmatlar mijozlarga banklar o'rtasida mablag'larni tez o'tkazish va yuqori daromadli moliyaviy vositalarni tanlash imkonini berishi depozitlarning bankda saqlanish darajasini pasaytiradi.

Tadqiqot natijalari raqamlashtirishning bank likvidlilikiga ta'siri bir tomonlama emasligini ko'rsatadi. Raqamli platformalar depozitlarni jalb qilish xarajatlarini kamaytirishi va bankning mijozlar doirasini kengaytirishi mumkin. Biroq foiz stavkalari oshgan yoki bankka nisbatan ishonch pasaygan sharoitda xuddi shu platformalar depozitlarning tez chiqib ketishini osonlashtiradi. Demak, raqamli xizmatlarning likvidlilikka yakuniy ta'siri depozitlar tarkibi, mijozlar konsentratsiyasi, foiz sezgirligi va bankning likvidlilik zaxirasiga bog'liq.

O'rganilgan manbalarda raqamli bank xizmatlari depozitlarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirishi bilan birga, ularning harakatchanligini oshirishi asoslangan. Biroq O'zbekiston bank tizimi sharoitida masofaviy xizmatlar rivojlanishi, depozitlar dinamikasi va likvidlilik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik yetarlicha tadqiq etilmagan. Shuningdek, amaldagi likvidlilik stress-testlarida raqamli kanallar orqali bir kunlik depozit chiqimlarini hisobga olish usullari to'liq shakllanmagan. Mazkur tadqiqot ushbu bo'shliqni to'ldirishga va raqamli bank xizmatlarining likvidlilikka ta'sirini O'zbekiston bank tizimi ma'lumotlari asosida baholashga qaratilgan.

Tahlil va natijalar

Raqamli bank xizmatlarining likvidlilikka ta'sirini baholashda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020-2025 yillarga oid yillik hisobotlari, statistik byulletenlari va bank tizimi likvidlilik ko'rsatkichlaridan foydalanildi. Tahlil ikki bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqichda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni, bank kartalari, depozitlar va yuqori likvidli aktivlar dinamikasi taqqoslandi. Ikkinchi bosqichda raqamli kanallar orqali talab qilib olinguncha depozitlarning 10, 20 va 30 foizga chiqib ketishi likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsientiga (LCR) qanday ta'sir ko'rsatishi ssenariyli stress-test asosida baholandi.

1-jadval

O'zbekistonda raqamli bank xizmatlari va bank resurslari ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2024 yil yakuni	2025 yil yakuni	O'zgarish
-----------------------	----------------------------	----------------------------	------------------



Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar, mln	52,9	82,9	56,7%
Jismoniy shaxs foydalanuvchilar, mln	51,5	81,2	57,8%
Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar, mln	1,46	1,71	17,2%
Muomaladagi bank kartalari, mln dona	62,0	68,3	10,1%
Bank depozitlari, trln so'm	308,7	417,3	35,2%
Yuqori likvidli aktivlar, trln so'm	133,2	189,1	41,9%
Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti (LCR), foiz	193,8	207,5	13,7 foiz band
Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti (NSFR), foiz	115,3	119,9	4,6 foiz band

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Markaziy bank metodologiyasiga ko'ra, masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar internet-banking, mobil banking, USSD va SMS xizmatlari orqali bank hisobvaraqlarini boshqaruvchi mijozlarni qamrab oladi. Ushbu ko'rsatkich alohida shaxslar sonini emas, turli banklar va xizmatlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilarni ifodalashi mumkin. Shu sababli uni aholining raqamli bank xizmatlari bilan qamrab olinish darajasi sifatida emas, balki raqamli xizmatlar ko'lamini tavsiflovchi indikator sifatida baholash lozim.

2025 yilda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 52,9 mlndan 82,9 mlngacha yoki 56,7 foizga ko'paygan. O'sish asosan jismoniy shaxslar hisobiga shakllangan. Jismoniy shaxs foydalanuvchilar soni 57,8 foizga, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni esa 17,2 foizga oshgan. Bu raqamli bank xizmatlarining chakana bank segmentida tezroq rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Shu davrda muomaladagi bank kartalari soni 10,1 foizga, depozitlar hajmi esa 35,2 foizga ko'paygan. Masofaviy foydalanuvchilar sonining bank kartalariga nisbatan tezroq o'sishi mobil ilovalar, onlayn depozitlar va elektron to'lov xizmatlaridan foydalanish faollashganini ko'rsatadi.

Raqamli xizmatlar kengaygan sharoitda bank depozitlarining 108,6 trln so'mga o'sishi raqamli kanallar resurs bazasini kengaytirishga xizmat qilishi mumkinligini ko'rsatadi. Onlayn depozitlarni masofadan ochish, ularni to'ldirish va muddatini uzaytirish imkoniyati banklarga filiallar tarmog'i cheklangan hududlardagi mijozlar mablag'larini ham jalb qilish imkonini beradi.

Biroq masofaviy foydalanuvchilar va depozitlar o'sishining bir vaqtda yuz berishi raqamli xizmatlar depozitlar o'sishining yagona sababi ekanini anglatmaydi. Depozitlar dinamikasiga aholi va korxonalar daromadlari, foiz stavkalari, inflyatsiya, almashuv kursi, omonatlarni kafolatlash tizimi va banklarga bo'lgan ishonch ham ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli aniqlangan bog'liqlikni sababiy ta'sir emas, balki o'zaro bir yo'nalishdagi dinamika sifatida baholash maqsadga muvofiq.

2-jadval

Bank tizimi depozitlari va likvidlilik ko'rsatkichlari dinamikasi



Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Depozitlar, trln so'm	114,7	156,2	216,7	241,7	308,7	417,3
Talab qilib olinguncha depozitlar ulushi, foiz	46,9	44,3	46,5	36,4	34,0	30,9
Yuqori likvidli aktivlar, trln so'm	50,5	76,0	104,5	96,9	133,2	189,1
Yuqori likvidli aktivlar ulushi, foiz	14,2	17,7	19,4	14,9	17,3	21,1
Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti (LCR), foiz	224,5	189,6	211,6	164,8	193,8	207,5
Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti (NSFR), foiz	109,9	115,4	115,6	111,8	115,3	119,9
Kredit-depozit nisbati, foiz	241,4	209,0	180,0	195,0	172,7	144,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

2020-2025 yillarda bank depozitlari 114,7 trln so'mdan 417,3 trln so'mgacha yoki 3,6 barobarga ko'paygan. Talab qilib olinguncha depozitlarning jami depozitlardagi ulushi 46,9 foizdan 30,9 foizgacha pasaygan. Jamg'arma va muddatli depozitlar ulushining ko'payishi resurs bazasining nisbatan barqarorlashganini ko'rsatadi.

Mazkur tarkibiy o'zgarish raqamli bank xizmatlarining likvidlilikka ijobiy ta'sirini kuchaytirishi mumkin. Onlayn jamg'arma va muddatli depozitlarni ochish imkoniyati mijozlarning vaqtincha bo'sh mablag'larini talab qilib olinguncha hisobvaraqlardan nisbatan barqaror depozit mahsulotlariga o'tkazishni osonlashtiradi. Bu banklarga kelgusi pul chiqimlarini aniqroq prognozlash imkonini beradi.

Yuqori likvidli aktivlar 2020 yildagi 50,5 trln so'mdan 2025 yilda 189,1 trln so'mgacha ko'paygan. Ularning jami aktivlardagi ulushi 14,2 foizdan 21,1 foizgacha oshgan. Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti (LCR) ham butun tahlil davrida 100 foizlik minimal talabdan yuqori saqlangan.

Biroq 2023 yilda yuqori likvidli aktivlar ulushi 19,4 foizdan 14,9 foizgacha, likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti (LCR) esa 211,6 foizdan 164,8 foizgacha pasaygan. Ayni vaqtda kredit-depozit nisbati 180,0 foizdan 195,0 foizgacha ko'tarilgan. Bu raqamli xizmatlarning rivojlanishi likvidlilik barqarorligini avtomatik ravishda ta'minlamasligini ko'rsatadi. Aktivlar va passivlar o'sishi muvofiqlashtirilmasa, raqamli kanallar orqali jalb qilingan resurslar ham likvidlilik nomutanosibligini bartaraf eta olmaydi.

2024-2025 yillarda masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar sonining tez o'sishi depozitlar va yuqori likvidli aktivlarning ko'payishi bilan bir vaqtda yuz bergan. Natijada likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti (LCR) 193,8 foizdan 207,5 foizga, sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsienti (NSFR) esa 115,3 foizdan 119,9 foizga oshgan. Demak, tahlil qilingan davrda raqamli bank xizmatlarining kengayishi bank tizimi likvidliligining yomonlashishi bilan kuzatilmagan.



Shu bilan birga, raqamli xizmatlar depozitlarning harakatchanligini oshiradi. N. Koont, T. Santos va L. Zingales tadqiqoti mobil ilova va brokerlik xizmatlariga ega banklarda foiz stavkalari oshganda depozitlar tezroq chiqib ketishini ko'rsatgan [5]. O'zbekiston banklarida ham omonatlarni onlayn ochish bilan bir qatorda, ularni masofadan yopish va mablag'larni boshqa bankka o'tkazish imkoniyati depozitlarning an'anaviy barqarorlik xususiyatini o'zgartirishi mumkin.

3-jadval

Raqamli depozitlar chiqib ketishining bank tizimi likvidliligiga ta'siri

Ssenariy	Talab qilib olinguncha depozitlar chiqimi	Pul chiqimi, trln so'm	Likvidlilik zaxirasining sarflanishi	Stressdan keyingi LCR
Bazaviy holat	0%	0,0	0,0%	207,5%
Mo'tadil stress	10%	12,9	6,8%	181,8%
Kuchli stress	20%	25,8	13,6%	161,7%
Keskin stress	30%	38,7	20,5%	145,7%

Manba: muallif hisob-kitoblari.

Mo'tadil ssenariyda talab qilib olinguncha depozitlarning 10 foizi raqamli kanallar orqali chiqib ketsa, qo'shimcha pul chiqimi 12,9 trln so'mni tashkil etadi. Natijada likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti (LCR) 207,5 foizdan 181,8 foizgacha pasayadi.

Kuchli stress ssenariysida 25,8 trln so'mlik depozit chiqimi likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsientini (LCR) 161,7 foizgacha kamaytiradi. Keskin ssenariyda esa 38,7 trln so'mlik depozit chiqimi yuqori likvidli aktivlar zaxirasining 20,5 foiziga teng bo'ladi va koeffitsient 145,7 foizgacha pasayadi.

Barcha ssenariylarda bank tizimi bo'yicha hisoblangan koeffitsient 100 foizlik minimal talabdan yuqori saqlanadi. Bu 2025 yil yakunida shakllangan agregat likvidlilik zaxirasi talab qilib olinguncha depozitlarning 30 foizlik chiqib ketishini shartli ravishda qoplash imkonini berishini ko'rsatadi.

Biroq agregat natija barcha tijorat banklarining bir xil barqarorligini anglatmaydi. Raqamli depozitlar konsentratsiyasi yuqori, yuqori likvidli aktivlari cheklangan yoki yirik omonatchilarga qaram banklarda likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti (LCR) 100 foizdan pastlashishi mumkin. Shuningdek, mazkur hisob-kitobda yuqori likvidli aktivlar qiymatining pasayishi, kredit liniyalarining yopilishi va tashqi mablag'larni qayta moliyalashtirishdagi cheklovlar hisobga olinmagan.

Keskin depozit chiqimiga yuqori likvidli aktivlar qiymatiga 10 foizlik diskont qo'llanilishi qo'shilsa, stressdan keyingi likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti taxminan 131,1 foizgacha pasayadi. Bu raqamli depozitlar chiqib ketishi bozor



likvidliligi yomonlashishi bilan bir vaqtda yuz berganda bankning likvidlilik zaxirasi tezroq qisqarishini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari raqamli bank xizmatlari odatiy sharoitda depozitlarni jalb qilish, resurs bazasini diversifikatsiyalash va pul oqimlarini tezkor boshqarish orqali bank likvidliligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Stress sharoitida esa raqamli kanallar depozitlarning harakat tezligini oshirib, bankning yuqori likvidli aktivlariga qisqa vaqtda bosim o'tkazadi. Shu sababli raqamli xizmatlar ko'lamini kengaytirish likvidlilikni real vaqt rejimida monitoring qilish, kunlik stress-testlar va raqamli depozitlar konsentratsiyasi bo'yicha ichki limitlar bilan birgalikda amalga oshirilishi lozim.

Xulosa va takliflar

O'tkazilgan tadqiqot raqamli bank xizmatlarining tijorat banklari likvidliligiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Odatiy sharoitda mobil banking, internet-banking va onlayn depozitlar banklarning mijozlar doirasini kengaytiradi, depozitlarni jalb qilish xarajatlarini kamaytiradi va resurs bazasini diversifikatsiyalashga xizmat qiladi. Raqamli ma'lumotlardan foydalanish pul oqimlarini tezkor kuzatish va likvidlilikka bo'lgan ehtiyojni aniqroq prognozlash imkonini ham beradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

1. Raqamli pul oqimlarini real vaqt rejimida monitoring qilish

Tijorat banklari mobil banking, internet-banking va tezkor to'lov tizimlari orqali amalga oshirilayotgan pul kirimi va chiqimlarini alohida hisobga olishi kerak. Monitoring tizimi quyidagi ko'rsatkichlarni qamrab olishi lozim:

- bir soatlik va bir kunlik sof raqamli pul chiqimi;
- raqamli kanallar orqali yechilgan depozitlar hajmi;
- mablag'lar chiqib ketgan asosiy banklar va moliyaviy vositalar;
- jismoniy va yuridik shaxslar operatsiyalari;
- yirik omonatchilar mablag'larining harakati;
- milliy va xorijiy valyutadagi raqamli pul oqimlari.

Bir kunlik raqamli sof pul chiqimi so'nggi 12 oylik kuzatuvlarning 95-persentilidan ohsa, bankning aktivlar va passivlarni boshqarish qo'mitasiga avtomatik ogohlantirish yuborilishi maqsadga muvofiq.

2. Raqamli depozitlarni alohida tasniflash

Bank depozitlari faqat muddati va valyutasi bo'yicha emas, ularni boshqarish kanali bo'yicha ham tasniflanishi lozim. Bunda depozitlar quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- faqat bank ofisida boshqariladigan depozitlar;
- mobil ilova orqali boshqariladigan depozitlar;
- internet-banking orqali boshqariladigan depozitlar;
- avtomatik uzaytiriladigan onlayn depozitlar;
- boshqa moliyaviy vositalarga tez o'tkazilishi mumkin bo'lgan depozitlar.

Ushbu tasnif har bir depozit guruhining chiqib ketish tezligi va barqarorligini alohida baholash imkonini beradi.



3. Raqamli depozitlar bo'yicha stress-testlarni joriy etish

Likvidlilik stress-testlariga talab qilib olinguncha raqamli depozitlarning 10, 20 va 30 foizga chiqib ketish ssenariylari kiritilishi kerak. Qo'shimcha ravishda quyidagi birlashgan ssenariylar qo'llanilishi maqsadga muvofiq:

- raqamli depozitlarning 30 foizga chiqib ketishi;
- yuqori likvidli aktivlarga 10 foizlik diskont qo'llanilishi;
- banklararo moliyalashtirish imkoniyatining cheklanishi;
- tashqi kredit liniyalarining qisman yopilishi;
- mobil ilova yoki to'lov tizimida texnik uzilish yuz berishi;
- ijtimoiy tarmoqlarda bankka nisbatan salbiy axborot tarqalishi.

Stress-testlar bank tizimi bo'yicha emas, har bir valyuta, mijozlar guruhi va raqamli xizmat kanali bo'yicha o'tkazilishi lozim.

4. Raqamli likvidlilik uchun ichki ogohlantirish chegaralarini belgilash

Raqamli depozitlar konsentratsiyasi yuqori banklarda likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsienti (LCR) bo'yicha quyidagi ichki chegaralardan foydalanish taklif etiladi:

- 150 foiz va undan yuqori, barqaror daraja;
- 130-149,9 foiz, ogohlantiruvchi daraja;
- 100-129,9 foiz, tuzatish choralari talab qiluvchi daraja;
- 100 foizdan past, likvidlilikni tiklash rejasini ishga tushiruvchi daraja.

Mazkur chegaralar prudensial me'yorni almashtirmaydi. Ular bankning ichki erta ogohlantirish tizimida qo'llaniladi.

5. Garovga qo'yilmagan likvid aktivlar zaxirasini shakllantirish

Bankning garovga qo'yilmagan yuqori likvidli aktivlari eng keskin bir kunlik raqamli pul chiqimini to'liq qoplashi kerak. Shu maqsadda bir kunlik raqamli chiqimni likvid aktivlar bilan qoplash koeffitsienti kamida 100 foiz darajasida saqlanishi lozim.

Raqamli depozitlar konsentratsiyasi oshgan sari bankning ichki likvidlilik buferi ham mutanosib ravishda ko'paytirilishi kerak. Buferning hajmi bankning raqamli mijozlari soniga emas, ular mablag'larining hajmi va chiqib ketish ehtimoliga asoslanishi lozim.

6. Depozitlar konsentratsiyasini pasaytirish

Raqamli banklar yuqori foiz stavkalari orqali qisqa vaqtda yirik depozitlarni jalb qilishi mumkin. Biroq bunday mablag'lar bozor sharoiti o'zgarganda tez chiqib ketishi ehtimoli yuqori. Shu sababli banklar:

- yirik raqamli omonatchilar ulushiga ichki limit belgilashi;
- depozitlarni mijozlar, tarmoqlar va hududlar bo'yicha diversifikatsiyalashi;
- jamg'arma va muddatli onlayn depozitlarni kengaytirishi;
- depozitlarni muddatidan oldin yechish shartlarini riskka muvofiq belgilashi;
- depozitlar o'sishini yuqori foiz stavkalariga ortiqcha bog'lab qo'ymasligi lozim.

7. Favqulodda moliyalashtirish rejasini raqamli risklarga moslashtirish

Favqulodda moliyalashtirish rejasida raqamli depozitlarning tezkor chiqib ketishi alohida ssenariy sifatida ko'rsatilishi kerak. Rejada:



uni ishga tushirish ko'rsatkichlari;
qaror qabul qiluvchi shaxslar;
foydalaniladigan likvid aktivlar;
REPO operatsiyalariga jalb qilinadigan aktivlar;
Markaziy bankdan mablag' jalb qilish tartibi;
to'lov tizimlari uzluksizligini ta'minlash choralari;
mijozlar va jamoatchilik bilan axborot almashish siyosati belgilanishi lozim.

Salbiy axborotga kechikib javob berish raqamli depozitlar chiqimini tezlashtirishi mumkin. Shu sababli favqulodda kommunikatsiya rejasi likvidlilikni tiklash choralarining tarkibiy qismi bo'lishi kerak.

8. Markaziy bank nazoratida raqamli likvidlilik hisobotini joriy etish

Tijorat banklari Markaziy bankka raqamli kanallar bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni taqdim etishi maqsadga muvofiq:

raqamli depozitlar qoldig'i;
bir kunlik eng yuqori sof pul chiqimi;
yirik raqamli omonatchilar konsentratsiyasi;
raqamli depozitlarning muddat va valyuta tarkibi;
raqamli stress-test natijalari;
garovga qo'yilmagan likvid aktivlar bilan qoplash darajasi.

Ushbu ma'lumotlar banklar kesimida raqamli likvidlilik riskini baholash va tizimli zaifliklarni prudensial me'yorlar buzilishidan oldin aniqlash imkonini beradi.

Taklif etilgan choralarni amalga oshirish raqamli bank xizmatlarini cheklashni emas, balki ularning rivojlanishini likvidlilikni boshqarish tizimi bilan muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Raqamli xizmatlar ko'lami oshgan sari banklarda likvidlilik monitoringi tezligi, stress-testlar qamrovi va favqulodda moliyalashtirish imkoniyatlari ham mutanosib ravishda takomillashtirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for Sound Liquidity Risk Management and Supervision. Basel: Bank for International Settlements, 2008. 44 p.

2. Basel Committee on Banking Supervision. Basel III: The Liquidity Coverage Ratio and Liquidity Risk Monitoring Tools. Basel: Bank for International Settlements, 2013. 75 p.

3. Basel Committee on Banking Supervision. Report on the 2023 Banking Turmoil. Basel: Bank for International Settlements, 2023. 36 p.

4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2024 yil uchun yillik hisobot. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025.

5. Koont N., Santos T., Zingales L. Destabilizing Digital "Bank Walks" // NBER Working Paper. 2024. No. 32601.

6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Markaziy bankning statistik byulleteni: 2025 yil. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026. 132 b.



ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

O'SMIRLARDA OTA-ONALAR BILAN NIZOLI VAZIYATLARNING
YUZAGA KELISHIDA VIRTUAL AXBOROTLARNING TUTGAN O'RNI

Karimqulova Surayyo Numonjon qizi

Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

E-mail: surayyokarimqulova28@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'smirlar va ota-onalar o'rtasida yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarning shakllanishida virtual axborotlarning o'rni va ta'siri tahlil qilingan. Internet tarmog'i, ijtimoiy tarmoqlar hamda raqamli kommunikatsiya vositalari orqali tarqaladigan axborotlarning o'smirlar dunyoqarashi, qadriyatlari va xulq-atvoriga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, virtual muhitning oilaviy munosabatlarga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy jihatlar hamda nizolarni oldini olish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: o'smirlar, ota-onalar, nizoli vaziyatlar, virtual axborot, ijtimoiy tarmoqlar, oilaviy munosabatlar.

Аннотация. В данной статье анализируется роль виртуальной информации в возникновении конфликтных ситуаций между подростками и родителями. Рассматривается влияние информации, распространяемой через интернет, социальные сети и цифровые средства коммуникации, на мировоззрение, ценности и поведение подростков. Также освещаются положительные и отрицательные стороны виртуальной среды в семейных отношениях и предлагаются рекомендации по профилактике конфликтов.

Ключевые слова: подростки, родители, конфликтные ситуации, виртуальная информация, социальные сети, семейные отношения.

Abstract. This article examines the role of virtual information in the emergence of conflict situations between adolescents and their parents. The influence of information disseminated through the Internet, social networks, and digital communication tools on adolescents' worldview, values, and behavior is analyzed. The study also highlights the positive and negative effects of the virtual environment on family relationships and provides recommendations for preventing conflicts.

Keywords: adolescents, parents, conflict situations, virtual information, social networks, family relationships.

O'smirlik davri shaxs rivojlanishidagi eng murakkab va ziddiyatli bosqichlardan biri sifatida tan olinadi. Bu davrda bola jismoniy, hissiy va ijtimoiy jihatdan jadal o'zgarishlarni boshidan kechiradi, mustaqillikka intiladi va ota-onalardan ruhiy ajralish (psixologik emansipatsiya) jarayonini boshlaydi. An'anaviy



psixologiya o‘smir–ota-ona muloqotidagi ziddiyatlarni shu tabiiy o‘rish jarayoni bilan tushuntirib kelgan. Biroq XXI asrning birinchi choragida bu tabiiy jarayonga butunlay yangi va kuchli omil qo‘shildi – ijtimoiy tarmoqlardagi virtual axborot oqimi. Mazkur tezisda virtual axborotning o‘smir va ota-ona o‘rtasidagi nizoli vaziyatlarni yuzaga keltirishdagi o‘rni psixologik mexanizmlar darajasida ko‘rib chiqiladi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi paytda 13–18 yoshli o‘smirlarning katta qismi kuniga 4–6 soatdan ortiq vaqtni Instagram, TikTok, Telegram, YouTube va boshqa ijtimoiy platformalarda o‘tkazadi. Bu vaqt mobaynida ular nafaqat ko‘ngilochar kontentni iste’mol qiladi, balki shaxsiy qadriyatlar, kutishlar va muloqot uslublarini shakllantiradigan ulkan axborot bilan to‘qnashadi. Bu axborot ota-onalar bilan tabiiy mavjud bo‘lgan kommunikativ tafovutga qo‘shimcha psixologik bosim sifatida ta’sir qiladi va oilaviy ziddiyatlarning yangi turlarini keltirib chiqaradi.

Ushbu mavzuda ilgari surilgan maqsad ham virtual axborotning o‘smir bilan ota-ona o‘rtasidagi nizoli vaziyatlarga ta’sir mexanizmlarini ochib berish va bu ta’sirni yumshatishning psixologik yo‘llarini ko‘rsatib o‘tishdir. Tahlilning nazariy asosini A. Bandura ning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi, L. Festinger ning ijtimoiy qiyoslash nazariyasi, U. Bronfenbrenner ning ekologik tizimlar nazariyasi va M. Prensky ning raqamli avlodlar kontsepsiyasi tashkil etadi. Quyida nizoli vaziyatlarning yuzaga kelishidagi beshta asosiy psixologik manba ketma-ket ko‘rib chiqiladi.

M. Prensky tomonidan kiritilgan “raqamli mahalliyar” va “raqamli muhojirlar” kontsepsiyasi zamonaviy oiladagi nizolarning birinchi sababini juda aniq tasvirlaydi. O‘smir uchun raqamli muhit – tabiiy, tug‘ma yashash makoni, ota-ona uchun esa u – keyinroq o‘rganilgan va to‘liq tushunilmagan begona hudud. Natijada ota-onaning tarmoqdagi faoliyatni nazorat qilish yoki cheklash urinishlari ko‘pincha o‘smir tomonidan shaxsiy chegaralarning buzilishi sifatida idrok qilinadi va qarshilikni keltirib chiqaradi. Ota-onaning oddiy savoli – “sen u yerda kim bilan yozishyapsan?”, “telefonni ko‘rsat-chi” – o‘smirga ishonchsizlik ifodasi sifatida tuyuladi. Aks holda ota-ona o‘smirning hayotidan butunlay uzilib qolish xavfini sezadi. Bu ikki tomonlama qarama-qarshilik takroriy nizolarning birinchi va eng keng tarqalgan manbai hisoblanadi.

Bu tafovutning muhim psixologik xususiyati shundaki, u oddiygina texnik bilim darajasi bilan emas, balki dunyoqarash, vaqt va munosabatlar haqidagi tushunchalar bilan ham bog‘liq. Ota-ona uchun muloqot – bu yuzma-yuz suhbat, ko‘zga qarash, bir-birini eshitish; o‘smir uchun esa muloqot ovozli xabar, emodzi, qisqa video va o‘zaro tarqatilgan rasm ham bo‘lishi mumkin. Ikki tomon “muloqot” so‘zini turli ma’nolarda tushunishi sababli oddiy suhbat ham nizoga aylanishi mumkin: o‘smir o‘zicha faol muloqotda deb hisoblaydi, ota-ona esa uni “men bilan gaplashmayapsan” deb ayblaydi.



L. Festinger ning ijtimoiy qiyoslash nazariyasiga ko'ra, inson o'zini baholashda doimo boshqalar bilan qiyoslab boradi. Ijtimoiy tarmoqlar bu mexanizmni ulkan miqyosga olib chiqdi: o'smir kuniga yuzlab idealizatsiyalangan oilalar, ota-onalar, sovg'alar, sayohatlar va munosabatlar tasvirlarini ko'radi. Bu tasvirlar ataylab tanlangan, montaj qilingan va eng yaxshi tomonlari taqdim etilgan "madaniy vitrinalar" ekanligi unutiladi. Natijada o'smirda o'z ota-onalariga nisbatan kutishlar ko'tariladi: ular yetarlicha "zamonaviy", "tushunadigan", "qo'llab-quvvatlovchi" emasdek tuyuladi. Real hayotning bu kutishlarga javob bermasligi norozilikni kuchaytiradi va kundalik mavzular (kiyim, sovg'a, ruxsat berish, vaqt o'tkazish) nizoga aylanadi. Bu yerda ota-ona aybdor emas – ular oddiygina haqiqiy odamlardir, lekin o'smir psixikasida ular ideallashtirilgan virtual modellar bilan taqqoslanadi.

Zamonaviy psixolog S. Tyorkl tomonidan kiritilgan "yonma-yon yolg'izlik" (alone together) hodisasi raqamli davrning eng keng tarqalgan oilaviy muammosini ifodalaydi. O'smir va ota-ona jismonan bitta xonada bo'ladi, lekin har biri o'z ekraniga g'arq bo'ladi. Ekran o'zining ulkan va uzluksiz axborot oqimi bilan oilaviy muloqot uchun ajratiladigan vaqt va e'tibor resursi uchun raqobatga kirishadi. Ko'p hollarda ekran g'alaba qozonadi: chunki u maxsus ravishda diqqatni jalb qilish uchun mo'ljallangan algoritmlar bilan ishlaydi. Natijada ota-onaning "telefonni qo'y", "men bilan gaplash", "biz birga vaqt o'tkazaylik" kabi talablari kundalik ziddiyatning bevosita sababiga aylanadi. Bu ziddiyat o'smirda "sizlar meni tushunmaysiz" hissini, ota-onada esa "biz uni yo'qotaymiz" xavotirini kuchaytiradi.

Tarmoq axboroti o'smirlarga oilada qabul qilingan an'anaviy qadriyatlardan farq qiluvchi, ba'zan esa ularga butunlay zid bo'lgan qarashlar, normalar va xulq-atvor namunalarini taqdim etadi. Bu o'zbek oilasi sharoitida ayniqsa keskin namoyon bo'ladi, chunki bizning madaniyatda oilaviy hokimiyat ierarxiyasi, kattalar avtoriteti va an'anaviy ahloqiy normalar muhim o'rin tutadi. O'smir tarmoqdan o'zlashtirgan yangi pozitsiyalarni (masalan, shaxsiy hudud, individual tanlov huquqi, hissiy ochiqlik haqida) himoya qilar ekan, ota-ona ko'pincha buni hurmatsizlik, begona ta'sir yoki "notinchlik" sifatida idrok etadi. Bu qarama-qarshilik mafkuraviy darajaga ko'tarilib, oddiy maishiy mavzudan keng masshtabli oilaviy ziddiyatga aylanishi mumkin.

So'nggi yillardagi tadqiqotlar (J. M. Twenge, G. U. Soldatova) shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda ko'p vaqt o'tkazadigan o'smirlarda tashvish, depressiya va emotsional charchoq simptomlari statistik jihatdan sezilarli darajada yuqori bo'ladi. Bu emotsional yuk uy sharoitiga ham olib kelinadi: o'smir asabiy, jahldor yoki ichiga yopilgan holatda bo'ladi. Ota-onalar uning bu holatining haqiqiy sababini bilmagani uchun bunday xulqni qasddan qilingan hurmatsizlik yoki yomon tarbiya alomati sifatida qabul qilishadi va jazo bilan munosabat bildirishadi. Bu esa nizoning kuchayishiga va o'smirning hissiy zaiflik holatida yanada yolg'izlanishiga olib keladi.



Yuqorida ko‘rilgan beshta mexanizm psixologik amaliyot uchun aniq ish yo‘nalishlarini belgilab beradi. Birinchi yo‘nalish – ota-onalarning raqamli kompetensiyasini oshirishga qaratilgan ta’limiy ishlar: ota-onalar uchun mediasavodxonlik kurslari, asosiy ijtimoiy platformalarning ishlash printsiplari va o‘smirlik psixologiyasini birgalikda taqdim etadigan seminarlar tashkil etish. Ikkinchi yo‘nalish – o‘smir uchun tanqidiy mediafikrlashni rivojlantirish: u tarmoqdagi tasvirlarning tanlanganligi, montaj qilinganligi va ataylab idealizatsiyalanganligi haqida ongli tushunchaga ega bo‘lishi kerak. Uchinchi yo‘nalish – oilaviy psixolog yordamida “raqamli kelishuvlar” (digital contract) ishlab chiqish: kun davomida ekransiz vaqt zonalari, birgalikda ovqatlanish vaqti, dam olish kunidagi raqamli detoks kabi qoidalarni har ikki tomon ham tushunib qabul qilishi. To‘rtinchi yo‘nalish – ota-onaning emotsional ochiqligini rivojlantirish: o‘smir bilan u ko‘rgan kontent haqida hukm qilmasdan suhbatlasha olish ko‘nikmasi nizo darajasini sezilarli kamaytiradi.

Yuqorida ko‘rilgan tahlil shuni isbotlaydiki, virtual axborot o‘smir–ota-ona nizosining mustaqil sababi emas, balki uni shakllantiruvchi, kuchaytiruvchi va yangi yo‘nalishlarga oluvchi vositachi omil hisoblanadi. Nizo asosan beshta mexanizm orqali yuzaga keladi: avlodlararo axborot tafovuti, ijtimoiy qiyoslash, e’tibor uchun raqobat, qadriyatlar to‘qnashuvi va depressiv emotsional yuk. Bu mexanizmlar bir-biridan ajralgan holda emas, balki o‘zaro bog‘liq tarzda harakat qiladi va ko‘pincha bir nizoli vaziyatda ikki yoki uchta bir vaqtda kuzatiladi.

Xulosa qilib aytganda Nizoni yumshatishning samarali yo‘li birinchi navbatda ota-onalarning mediasavodxonligini oshirish va vositachilik (mediation) muloqot strategiyasiga o‘tishdir. Bu strategiya raqamli kontentni o‘smir bilan birgalikda muhokama qilishni, undagi xavfli va ijobiy tomonlarni ochiq tushuntirishni nazarda tutadi. Taqiq emas, balki ochiq dialog zamonaviy oilada o‘smir bilan munosabatlarni saqlab qolishning eng ishonchli psixologik usulidir. Shuningdek, o‘smirning o‘zida ham tanqidiy fikrlash va mediasavodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish lozim: tarmoqdagi tasvirlarning saralangan va idealizatsiyalangan tabiati haqida ongli tushuncha shakllantirish nizolarning ko‘p qismini oldindan oldini olishga imkon beradi. Kelgusi empirik tadqiqotlar mazkur nazariy qoidalarning o‘zbek oilalari kontekstida qanday namoyon bo‘lishini aniq raqamli ma’lumotlar bilan tasdiqlashi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boyd D. It’s Complicated: The Social Lives of Networked Teens. – New Haven: Yale University Press, 2014. – 281 p.
2. Twenge J. M. iGen. – New York: Atria Books, 2017. – 352 p.
3. Turkle S. Alone Together. – New York: Basic Books, 2011. – 384 p.
4. Солдатов Г. У. Цифровое поколение России. – М.: Смысл, 2017. – 375 с.
5. G‘oziyev E. G‘. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 312 b.



**БИОМЕДИЦИНА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

**СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ И КЛИНИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ
ПАРС ПЛАНА ВИТРЕКТОМИИ В ЛЕЧЕНИИ
ПОСТОПЕРАЦИОННОГО И ПОСТТРАВМАТИЧЕСКОГО
ЭНДОФТАЛЬМИТА**

Гайратов Азизжон Хасан угли,
Республиканский специализированный
научно-практический медицинский центр
микрохирургии глаза, клиник ординатор
gayratov.aziz615@gmail.com

Ходжаева Зилолахон Анвар кизи
Республиканский специализированный
научно-практический медицинский центр
микрохирургии глаза, офтальмолог
Khodjayeva_z@gmail.com

АННОТАЦИЯ: В настоящем расширенном обзорном тезисе представлен систематический анализ актуальных научных данных, посвященных роли субтотальной парс плана витрэктомии (ППВ) в комплексном лечении острого постоперационного и посттравматического эндофтальмита. Подробно рассмотрена эволюция хирургических показаний со времен классического исследования EVS (Endophthalmitis Vitrectomy Study) до внедрения современных бесшовных микроинвазивных технологий (MIVS 23G, 25G, 27G). Особое внимание уделено патогенетическому обоснованию ранней витрэктомии, элиминации бактериально-токсического субстрата, восстановительной динамике зрительных функций и комбинированному применению интравитреальных антибиотиков и эндотампонады (силиконовое масло, расширяющиеся газы).

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Эндофтальмит, парс плана витрэктомия (ППВ), MIVS (25G/27G), интравитреальные инъекции, интраокулярная тампонада, силиконовое масло, острота зрения.

1. ВВЕДЕНИЕ И АКТУАЛЬНОСТЬ ПРОБЛЕМЫ

Острый эндофтальмит представляет собой одно из наиболее тяжелых ургентных состояний в офтальмохирургии, характеризующееся молниеносным или прогрессирующим гнойно-воспалительным поражением интраокулярных структур (стекловидного тела, сетчатки, сосудистой оболочки).



Эпидемиология: Несмотря на внедрение современных асептических мероприятий и технологическое совершенствование микрохирургии, частота постоперационного эндофтальмита после факэмульсификации катаракты варьирует от 0,03% до 0,15%. В то же время при открытой травме глазного яблока этот показатель возрастает до 3–17%, а при наличии интраокулярных инородных тел достигает 30%.

Патофизиология: Анатомо-физиологической особенностью полости глазного яблока является наличие гематофтальмического барьера, существенно ограничивающего проникновение системно вводимых антибактериальных препаратов в стекловидное тело. Накопление провоспалительных цитокинов (IL-1 β , IL-6, TNF- α), бактериальных эндотоксинов и ферментов агрессии неизбежно приводит к ферментативному лизису сетчатой оболочки и ишемической нейропатии. В этой связи хирургическая эвакуация инфицированного субстрата методом витрэктомии является ключевым звеном патогенетического лечения.

2. ЦЕЛЬ И ЗАДАЧИ ИССЛЕДОВАНИЯ

На основе систематизации данных мировой литературы оценить клинико-функциональную эффективность витрэктомии парс плана при эндофтальмите, обосновать преимущества раннего хирургического вмешательства и определить роль микроинвазивных витреоретинальных технологий (23G, 25G, 27G) в снижении риска постоперационных осложнений.

3. МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ

Проведен ретроспективный и аналитический обзор публикаций, индексированных в международных реферативных базах данных PubMed, Scopus, Web of Science и Cochrane Library за период с 2016 по 2026 годы. В анализ были включены рандомизированные контролируемые исследования, метаанализы и когортные клинические наблюдения по поисковым запросам: "acute endophthalmitis", "pars plana vitrectomy", "microincision vitrectomy surgery (MIVS)", "intravitreal antibiotics", "silicone oil tamponade".

4. ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

4.1. Патогенетические механизмы лечебного действия витрэктомии

Анализ современных витреоретинальных исследований указывает на многофакторный лечебный эффект субтотальной витрэктомии:

Механическая санация витреальной полости: Удаление деструктивно измененного стекловидного тела позволяет снизить концентрацию патогенных микроорганизмов и их токсинов более чем на 90–95%.



Ликвидация мембранного и ишемического компонента: Эвакуация гипопиона и витреальных шварт с мгновенным снижением уровня провоспалительных цитокинов предупреждает формирование тракционной отслойки сетчатки.

Оптимизация фармакодинамики: В удаленной витреальной полости интравитреально введенные антибактериальные препараты (ванкомицин, цефтазидим) беспрепятственно диффундируют к сетчатой оболочке, обеспечивая мгновенную бактерицидную концентрацию.

4.2. Сравнительный анализ: Протокол EVS vs Современная MIVS концепция

Параметр / Критерий	Протокол EVS (1995 г.)	Современная MIVS Концепция (23G / 25G / 27G)
Показания к витрэктомии	Только при остроте зрения = светоощущение (LP)	Независимо от остроты зрения при агрессивном течении
Сроки проведения	Отсроченное (при неэффективности консервативной терапии)	Ургентная / ранняя витрэктомия (первые 24–48 часов)
Калибр инструментария	20G (шовная техника sclerotomy)	23G, 25G, 27G (бесшовная микроинвазивная хирургия)
Интраокулярная тампонада	Сбалансированный солевой раствор (BSS)	Силиконовое масло (1000/5000 cSt), газы (SF ₆ , C ₃ F ₈)
Сохранение органа зрения	До 70–75%	Свыше 88–94% (при раннем вмешательстве)

4.3. Концепция «ранней» витрэктомии и интраокулярной тампонады

Многочисленные современные клинические метаанализы доказывают, что выполнение парс плана витрэктомии в первые 24–48 часов с момента постановки диагноза увеличивает вероятность сохранения зрительных функций (выше 0,1 по Шнеллену) в 2,8 раза по сравнению с исключительно интравитреальными инъекциями.

Применение силиконовой тампонады при тяжелом гнойном процессе не только обеспечивает механическое прилегание сетчатки, но и оказывает дополнительный бактериостатический и изолирующий эффект, физически ограничивая размножение анаэробной и аэробной флоры.



5. ВЫВОДЫ

1. Субтотальная парс плана витрэктомия является «золотым стандартом» патогенетической хирургической помощи при остром постоперационном и посттравматическом эндофтальмите.
2. Раннее хирургическое вмешательство (в течение первых 24–48 часов) позволяет быстро снизить бактериально-токсическую нагрузку и предотвратить необратимую гибель фоторецепторов сетчатки.
3. Внедрение бесшовных микроинвазивных систем (25G, 27G) существенно снижает операционную травму, минимизирует гипотонию и риск отслойки сетчатки, обеспечивая высокий процент анатомического и функционального успеха.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Endophthalmitis Vitrectomy Study Group. Results of the Endophthalmitis Vitrectomy Study. A randomized trial of immediate vitrectomy and of intravenous antibiotics for the treatment of postoperative bacterial endophthalmitis. *Arch Ophthalmol*. 1995; 113(12): 1479–1496.
2. Grzybowski A., Schwartz S.G., Matsuura K., et al. Endophthalmitis prophylaxis and management: 2020 Update. *Asia-Pac J Ophthalmol*. 2020; 9(6): 521–530.
3. Relhan N., Flynn H.W. Jr., Albin T.A. Endophthalmitis: Management and Outcomes. *Ophthalmol Retina*. 2018; 2(8): 782–785.
4. Schwartz S.G., Flynn H.W. Jr., Grzybowski A. Management of Acute Postoperative Endophthalmitis: Current Concepts and Controversies. *Curr Ophthalmol Rep*. 2019; 7(2): 101–108.
5. Kuhn F., Gini G. Ten years after the Endophthalmitis Vitrectomy Study: is it time to re-evaluate the results? *Eur J Ophthalmol*. 2005; 15(3): 301–303.



СТРУКТУРА ГИПОПИТУИТАРИЗМА И ГОРМОНАЛЬНЫХ НАРУШЕНИЙ У ПАЦИЕНТОВ С ГИГАНТСКИМИ НЕАКТИВНЫМИ АДЕНОМАМИ ГИПОФИЗА

Холикова Адлия Омонуллаевна¹, д.м.н.
Абдуллаев Аброржон Акмалжон угли¹
Хакимов Иброхим Исмоилжон угли¹

¹ Республиканский специализированный научно-практический медицинский центр эндокринологии МЗ Республики Узбекистан имени акад. Ё.Х. Туракулова, Ташкент, Республика Узбекистан

ORCID: Холикова А.О. — 0009-0006-5327-4322; Абдуллаев А.А. — 0009-0006-3826-7730; Хакимов И.И. — 0009-0002-3221-0750

Актуальность. Неактивные аденомы гипофиза (НАГ) представляют собой одну из наиболее распространённых форм клинически нефункционирующих гипофизарных нейроэндокринных опухолей. Несмотря на отсутствие клинически выраженных синдромов гормональной гиперсекреции, данные опухоли имеют важное клиническое значение, поскольку могут сопровождаться компрессией нормальной ткани гипофиза, нарушением функции гипофизарных осей и развитием различной степени гипопитуитаризма. Особую категорию составляют гигантские НАГ, размеры которых достигают 40 мм и более. У таких пациентов риск множественной гормональной недостаточности значительно возрастает, что требует ранней диагностики, комплексной оценки гормонального статуса и длительного эндокринологического наблюдения.

Цель исследования. Изучить и сопоставить клинико-эндокринные особенности пациентов с макро- и гигантскими неактивными аденомами гипофиза.

Материал и методы. Проведено проспективное сравнительное исследование 151 пациента с неактивными аденомами гипофиза, наблюдавшихся в Республиканском специализированном научно-практическом медицинском центре эндокринологии МЗ Республики Узбекистан имени акад. Ё.Х. Туракулова в 2021–2023 гг. В зависимости от максимального диаметра опухоли пациенты были распределены на две группы: 1-я группа — 55 больных с макроаденомами гипофиза размером 20–39 мм; 2-я группа — 96 пациентов с гигантскими аденомами гипофиза размером ≥ 40 мм. Контрольную группу составили 20 практически здоровых лиц, сопоставимых с пациентами по полу и возрасту.

Всем пациентам проводилось комплексное клинико-эндокринологическое обследование. Гормональный профиль оценивали по основным гипофизарным



осям. Исследовали уровни СТГ, ЛГ, ФСГ, АКТГ, ТТГ, пролактина, кортизола, общего тестостерона, ТЗ и Т4. Лабораторное определение гормонов выполняли методом иммуноферментного анализа. На основании полученных данных оценивали наличие гипопитуитаризма, пангипопитуитаризма, вторичного гипогонадизма, изолированного дефицита гормона роста, вторичной аменореи у женщин, функциональной гиперпролактинемии и вторичной остеопении. Статистически значимыми считали различия при $p < 0,05$.

Результаты. Сравнительный анализ показал, что у пациентов с гигантскими НАГ отмечались более выраженные нарушения гормонального профиля по сравнению с больными макроаденомами. Уровень ЛГ в группе макроНАГ составил $1,58 \pm 0,4$ МЕ/л, тогда как при гигантских НАГ — $0,69 \pm 0,03$ МЕ/л. Уровень ФСГ составил $1,71 \pm 0,3$ МЕ/л и $0,88 \pm 0,4$ МЕ/л соответственно. Также у пациентов с гигантскими НАГ выявлены более низкие значения СТГ, кортизола и общего тестостерона. Концентрация кортизола у пациентов 1-й группы составила $643,3 \pm 12,6$ нмоль/л, во 2-й группе — $190,2 \pm 22,1$ нмоль/л. Уровень общего тестостерона составил $12,4 \pm 1,1$ нг/мл при макроНАГ и $0,25 \pm 0,3$ нг/мл при гигантских НАГ.

Наиболее выраженным клинико-эндокринным отличием гигантских НАГ являлась высокая частота пангипопитуитаризма. В группе макроаденом пангипопитуитаризм был выявлен у 6 пациентов (10,9%), тогда как среди пациентов с гигантскими НАГ — у 70 больных (72,9%; $p < 0,001$). Полученные данные свидетельствуют о более глубоком поражении гипофизарной ткани при гигантских опухолях и подтверждают связь между распространённостью опухолевого процесса и формированием множественной гормональной недостаточности.

Функциональная гиперпролактинемия выявлялась у 34 пациентов с макроНАГ (61,8%) и у 36 пациентов с гигантскими НАГ (37,5%). Вторичный гипогонадизм регистрировался у 15 больных 1-й группы (27,3%) и у 25 больных 2-й группы (26,0%). Вторичная аменорея у женщин встречалась с сопоставимой частотой: 52,0% при макроНАГ и 53,7% при гигантских НАГ.

Отдельного внимания заслуживает вторичная остеопения, которая была выявлена исключительно у пациентов с гигантскими НАГ — у 17 больных (17,7%). Данный факт может быть связан с более выраженной соматотропной и гонадотропной недостаточностью, а также с более длительным течением заболевания до момента диагностики. Это подчёркивает необходимость оценки костно-метаболического статуса у пациентов с крупными неактивными аденомами гипофиза.

Закключение. Гигантские неактивные аденомы гипофиза характеризуются более выраженными клинико-эндокринными нарушениями по сравнению с макроаденомами. Наиболее значимым отличием является высокая частота пангипопитуитаризма, выявленного у 72,9% пациентов с гигантскими НАГ.



Полученные данные подтверждают необходимость расширенного гормонального обследования пациентов с крупными неактивными аденомами гипофиза, своевременного выявления гипопитуитаризма и коррекции гормональной недостаточности. Пациенты с гигантскими НАГ нуждаются в длительном эндокринологическом наблюдении, включающем оценку гипофизарных осей и риска костно-метаболических осложнений.

Ключевые слова: неактивная аденома гипофиза, макроаденома, гигантская аденома гипофиза, гипопитуитаризм, пангипопитуитаризм, гормональный профиль.



УДК:616.831-001-053.31-07:616.45

**БОШ МИЯ ТУҒРУҚ ЖАРОҲАТИНИНГ ЭРТА ДАВРИДА
ЧАҚАЛОҚЛАР БУЙРАК УСТИ БЕЗИНИНГ МОРФОФУНКЦИОНАЛ
ҲОЛАТИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ**

Мухсинова Махзуна Холмурадовна

Тошкент давлат тиббиёт университети,
доцент, т.ф.д., Ўзбекистон, Тошкент

Акбарова Одинахон Расуловна

Фарғона жамоат саломатлиги
тиббиёт институти Ўзбекистон, Фарғона

Аннотация: Бош миЯ туғруқ жароҳатининг эрта даврида чақалоқлар буйрак усти безида ривожланадиган морфофункционал ўзгаришларни баҳолаш мезонларини ишлаб чиқиш муҳим илмий-амалий аҳамиятга эга. Ушбу мезонлар патоморфологик ўзгаришларни баҳолаш, эрта прогнозлаш ва оғир асоратларнинг олдини олиш имконини беради. МиЯ тўқимасининг кенг қўламли шикастланиши, қон кетишлар ва миЯ шиши билан бир қаторда буйрак усти безларида глюкокортикоидлар секрециясининг кескин ортиши, пўстлоқ ва миЯ қаватларида икки ёки ундан ортиқ соҳада қон қуйилиш ўчоқларининг аниқланиши патологик жараённинг оғир даражасини кўрсатувчи асосий мезонлар сифатида баҳоланди.

Калит сўзлар: бош миЯ туғруқ жароҳати, чақалоқлар, буйрак усти бези, морфофункционал ҳолат, патоморфологик ўзгаришлар, қон қуйилиш, миЯ шиши.

Муаммонинг долзарблиги. Янги туғилган чақалоқларда туғруқ жароҳатлари, хусусан, бош миЯ туғруқ жароҳати (БМТЖ) перинатал касалланиш ва ўлимнинг муҳим сабабларидан бири ҳисобланади. Унинг учраш частотаси турли мамлакатларда фарқ қилиб, ҳар 1000 та туғруққа 0,2–41,2 ҳолатни ташкил этади. Шу боис, БМТЖ замонавий неонатология ва перинатал тиббиётнинг долзарб муаммоларидан бири бўлиб қолмоқда [1,2,5,8].

Туғруқ асфиксияси, гипоксия ва механик шикастланишлар марказий нерв тизимининг оғир зарарланишига олиб келиши мумкин. Дунё миқёсида ҳар йили миллионлаб чақалоқларда туғруқ асфиксияси ва механик травма билан боғлиқ неврологик бузилишлар кузатилади, уларнинг бир қисми перинатал даврда летал якунланади. АҚШ ва Европа мамлакатларида туғруқ жароҳатлари ҳар 1000 та туғруққа 6–7 ҳолатда, летал ҳолатлар эса 1–3 ҳолатда қайд этилган. Россия Федерацияси ва МДХ мамлакатларида мазкур кўрсаткич 25–38 ҳолатгача етиб, энг юқори кўрсаткичлар Туркменистон, Арманистон ва Ўзбекистонда қайд этилган [4,6,7,9].

БМТЖ патогенезида гипоксия, гемодинамик бузилишлар, қон кетишлар ва миЯ шиши билан бир қаторда организмнинг стресс-адаптацион реакциялари



ҳам муҳим аҳамиятга эга. Оғир травматик таъсир гипоталамо-гипофизар-адренал (ГГА) ўқининг фаоллашувига олиб келиб, буйрак усти безларида катехоламинлар ва глюкокортикоидлар секрециясининг кучайиши билан кечади. Кучли стресс таъсирида буйрак усти безининг пўстлоқ ва мия қаватларида гемодинамик, дистрофик, некробиотик ҳамда геморрагик ўзгаришлар ривожланиши мумкин.

Шу нуқтаи назардан, БМТЖдан нобуд бўлган чақалоқлар буйрак усти безларининг морфологик ва морфофункционал ҳолатини комплекс ўрганиш муҳим илмий-амалий аҳамиятга эга. Айниқса, БМТЖнинг эрта даврида буйрак усти безларидаги морфологик, морфометрик ва иммуногистокимёвий ўзгаришларнинг вақтга боғлиқ хусусиятларини баҳолаш етарлича ўрганилмаган. Бу ҳолат ушбу аъзо ҳолатини баҳолаш мезонларини ишлаб чиқиш, патологик жараённинг оғирлик даражасини аниқлаш ва перинатал летал ҳолатларнинг патоморфологик механизмларини чуқурроқ ўрганиш заруратини белгилайди.

Тадқиқот мақсади. Бош мия туғруқ жароҳатидан нобуд бўлган чақалоқлар буйрак усти безларида ривожланадиган морфологик ўзгаришларни ўрганиш, уларнинг хусусиятларини таҳлил қилиш ҳамда аниқланган патоморфологик ўзгаришларнинг оғирлик даражасини баҳолаш мезонларини ишлаб чиқиш.

Тадқиқот материаллари ва усуллари. Тадқиқот материали сифатида муддатида туғилган ва бош мия туғруқ жароҳати оқибатида нобуд бўлган 69 нафар чақалоқнинг аутопсияси жараёнида олинган буйрак усти бези тўқимаси бўлакларидан фойдаланилди. Олинган тўқима намуналарида буйрак усти безининг морфологик ўзгаришлари гистологик усулда ўрганилди ва таҳлил қилинди.

Муҳокама ва натижалар. Бош мия туғруқ жароҳати оқибатида нобуд бўлган чақалоқларда буйрак усти бези тўқимасининг шикастланиш даражасини комплекс баҳолашга қаратилган аниқ морфологик мезонлар етарлича ишлаб чиқилмаган. Шу муносабат билан, тадқиқотда микроскопик текширув жараёнида аниқланган патоморфологик ўзгаришларнинг хусусиятлари ва тарқалиш даражаси асосида уларнинг оғирлик даражасини баҳолаш мезонлари ишлаб чиқилди. Микроскопик текширув натижаларида буйрак усти безининг пўстлоқ ва мия қаватларидаги морфологик ўзгаришлар, жумладан, қон айланишининг бузилиши, қон қуйилишлар, дистрофик ва некробиотик ўзгаришлар ҳамда хужайралар структурасининг бузилиши инobatга олинди. Аниқланган ўзгаришларнинг интенсивлиги, тарқалиш майдони ва бир вақтнинг ўзида бир нечта морфологик белгиларнинг мавжудлигига асосан патологик жараённинг оғирлик даражаси баҳоланди.

1. Буйрак усти безининг функционал ҳолатини баҳолаш шкаласи (А.И. Струков ва бошқалар бўйича 2015 йил) бу тизим безнинг стрессга жавоб бериш даражасини 3 та асосий босқичга бўлади:

I босқич: Липидли киритмаларни сафарбар этилиши. Илк 1-3 соат ичида кузатилади. Пўстлоқ қаватида липидлар миқдори бироз камаяди, лекин хужайралар ўртача морфофункционал зўриқиш ҳолатида ҳисобланади.



II босқич: Функционал фаолликнинг энг юқори нуқтаси. 3 соатдан 6 соатгача бўлган муддат. Бунда "Делипидизация индекси" қўлланилади. Липидлар фақат пўстлоқ қаватининг ташқи қисмида қолади, ички қатламлар эса тўлиқ ёғсизланади.

III босқич: Функционал зўриқиш ва декомпенсация. Агар бош мия туғруқ травмаси йирик ўчоқларни шаклланиши билан давом этса, жуда оғир 6 соатга етмасдан без хужайраларида некробиоз ва кенг қўламли диапедез қон қуйилишлар бошланади.

2. Қон қуйилишларни баҳолаш мезони.

Туғруқ травмасида буйрак усти безидаги қон қуйилишлар ҳажмига қараб баҳоланади:

Балл/Даража	Морфологик белгиси	Тавсифи
0 даража	Норма	Қон томирлар меъёрида, қон қуйилишлар йўқ.
1 даража	Нуқтали геморрагиялар	Фақат капиллярлар атрофида, майда диапедез қон чиқиши.
2 даража	Ўчоқли қон қуйилишлар	Пўстлоқ ва мағиз қавати чегарасида алоҳида кўриниб турган ўчоқлар.
3 даража	Диффуз геморрагия	Безнинг катта қисмини эгаллаган, тузилишини бузган қон қуйилиши.
4 даража	Гематома (Апоплексия)	Безнинг бутунлай қон билан тўлиши ва капсуласининг шишиши.

3. Липидларни камайиш даражаси (Суданофил киритмаларни камайиши)

Патоморфологлар Судан III ёки IV бўёқлари билан бўялганда липидларнинг камайишини қуйидагича баҳолайдилар:

Тўлиқ сақланган: Пўстлоқ қавати ёрқин тўқ сариқ рангга бўялади.

Қисман делипидизация: Липидлар фақат пучакдор хужайраларнинг юқори қисмида сақланган.

Тўлиқ делипидизация: Илк 6 соат ичида безнинг "коллагенга учраши ва стромани яланғочланиши"ни англатади (ўткир стресс белгиси).

Ушбу 69 та ҳолатда қуйида буйрак усти безидаги геморрагик ва делипидизация даражаларини баҳолаш ҳамда уларни статистик таҳлили келтирилди.

1. Танланмани гуруҳларга ажратиш (N=69)

Объектларни туғруқ травмасининг оғирлик даражасига кўра 3 та кичик гуруҳга ажратилди:

1-гуруҳ (Енгил/Ўрта): 22 ҳолат.

2-гуруҳ (Оғир): 27 ҳолат.



3-гурӯх (Ўта оғир/Кенг кўламли шикастланиш): 20 ҳолат.

2. Морфологик кўрсаткичларни баҳолаш жадвали

Ҳар бир ҳолат учун 0 дан 3 баллгача бўлган шкалани қўллаймиз:

Кўрсаткич	0 балл	1 балл	2 балл	3 балл
Геморрагия (Г)	Йўқ	Нуктали (диапедез)	Ўчоқли (фокал)	Диффуз (гематома)
Делипидизация (Д)	Липидлар кўп	Қисман (пучакдор қаватда)	Сезиларли (тарқоқ)	Тўлиқ (бўшаб қолган)

Ушбу жадвалда келтирилган баҳолаш мезонларини қуйидагича қулай изоҳларда келтирдик.

1. Геморрагик ўзгаришларни баҳолаш (0–3 балл)

Геморрагиялар травманинг буйрак усти беги қон томирларига ва микроциркулятор ҳавзасига таъсирини кўрсатади.

0 балл (Меъёр): Томирлар қон билан ўртача тўлган. Капсула ости ёки паренхимада қон чиқишлари аниқланмайди.

1 балл (Енгил): Диапедез қон қуйилишлар. Қон томирлари атрофида кичик, нуктали эритроцитлар тўплами. Бу асосан капиллярлар ўтказувчанлиги ошганидан далолат беради.

2 балл (Ўрта): Ўчоқли (фокал) геморрагиялар. Пўстлоқ қавати (кўпинча фетал зона ва пучакдор қават чегарасида) алоҳида, бир-бири билан қўшилмаган қон қуйилиш ўчоқлари.

3 балл (Оғир): Диффуз геморрагия ва гематома. Без тўқимасининг катта қисми қон билан шимилган, ҳужайралар тузилиши бузилган. Кўпинча мағиз ва пўстлоқ қаватларини ажратиб бўлмайди.

2. Делипидизация (Липидлар камайиши) даражаси (0–3 балл)

Бу кўрсаткич стрессга жавобан гормонлар (кортизол) синтези учун сарфланган энергия захирасини ифодалайди.

0 балл (Юқори захира): Судан III билан бўялганда пўстлоқ қавати ҳужайралари ёрқин сариқ-тўқ сариқ рангга тўлиқ бўялади. Липидлар диффуз тарқалган.

1 балл (Бошланғич сарфланиш): Липидлар фақат пучакдор қаватнинг (zona fasciculata) юқори қисмида сақланиб қолган, ички қаватларда эса донатор кўринишга келган.

2 балл (Сезиларли камайиш): Пўстлоқ қаватининг катта қисми липидсизланган. Фақат капсула остидаги тор доирада липид қолдиқлари кўринади.

3 балл (Тўлиқ бўшаб): Липидлар деярли аниқланмайди. Ҳужайралар цитоплазмаси "бўш" ёки оч пушти рангга кўринади. Бу организмнинг адаптация захираси тугаганини аңлатади.

3. Ҳужайралар дистрофияси ва некробиоз (0–3 балл)



Бу кўрсаткич тўғридан-тўғри гипоксиянинг хужайра даражасидаги зарарини баҳолайди.

0 балл: Хужайралар ядроси ва цитоплазмаси тиник, чегаралари аниқ.

1 балл: **Донадор дистрофия.** Цитоплазма лойқаланган, хужайра чегаралари бироз шишган.

2 балл: **Вакуоль дистрофияси.** Хужайра ичида суюқлик тўпланиши натижасида бўшлиқлар (вакуолалар) пайдо бўлиши.

3 балл: **Некробиоз ва кариопикноз.** Ядролар кичрайган ва тўқлашган (пикноз), айрим хужайралар парчаланган (цитоллиз).

Хулоса: Бош мия туғруқ жароҳатида 0–6 соатлик эрта даврда буйрак усти безидаги интенсив морфологик ўзгаришларни баҳолаш мазкур аъзонинг шикастланиш даражасини аниқлашда муҳим аҳамиятга эга. Баҳолаш натижаларига кўра, максимал **3 балл** тўпланиши буйрак усти безининг **тотал шикастланишини** ифодаловчи асосий морфологик мезон сифатида белгиланди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

Moszczyńska E, Kunecka K, Baszyńska-Wilk M, Perek-Polnik M, Majak D, Grajkowska W. Pituitary Stalk Thickening: Causes and Consequences. The Children's Memorial Health Institute Experience and Literature Review. //Front Endocrinol (Lausanne). 2022 May 20;13:868558

Mendonça F, Ferreira AB, Pinto F, Vasconcelos A, Ferreira S, Rodrigues E, Castro-Correia C, Gil-da-Costa MJ, Bom-Sucesso M. Adrenal carcinoma as the first manifestation of a Li-Fraumeni syndrome in three paediatric patients. Endokrynol Pol. 2022;73(4):788-789.

Nanba AT, Nanba K, Byrd JB, Shields JJ, Giordano TJ, Miller BS, Rainey WE, Auchus RJ, Turcu AF (2017) Discordance between imaging and immunohistochemistry in unilateral primary aldosteronism. //Clin Endocrinol (Oxf) 87:665–672

Prete A, Taylor AE, Bancos I, Smith DJ, Foster MA, Kohler S, et al.. Prevention of adrenal crisis: Cortisol responses to major stress compared to stress dose hydrocortisone delivery. //J Clin Endocrinol Metab (2020) 105(7):2262–74.

Sakoda A, Mushtaq I, Levitt G, Sebire NJ. Clinical and histopathological features of adrenocortical neoplasms in children: retrospective review from a single specialist center. //J Pediatr Surg. 2014 Mar;49(3):410-5.

Sandru F, Dumitrascu MC, Petca A, Carsote M, Petca RC, Oproiu AM, Ghemigian A. Adrenal ganglioneuroma: Prognostic factors (Review). //Exp Ther Med. 2021 Nov;22(5):1338

Shapiro-Mendoza C.K., Tomashek K.M., Anderson R.N., Wingo J. Recent national trends in sudden, unexpected infant deaths: more evidence supporting a



change in classification or reporting //Am.J.Epidemiol.2006. Vol. 163. P. 762—769.

Sharrack N, Baxter CT, Paddock M, Uchegbu E. Adrenal haemorrhage as a complication of COVID-19 infection. //BMJ Case Rep. 2020 Nov 30;13(11):e239643.

Мухсинова, М. Х., Эшбаев, Э. А., & Зуфаров, А. А. Изоляциялашган трахея фистуласи вариантидаги қизилўнгач атрезиясининг морфологик жиҳатлари. // The Journal of humanities&Naturel sciences. №18(01), 2025. Volum 1. P.129-134.



ТОПОГРАФО-АНАТОМИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ГИГАНТСКИХ НЕАКТИВНЫХ АДЕНОМ ГИПОФИЗА ПО ДАННЫМ МАГНИТНО-РЕЗОНАНСНОЙ ТОМОГРАФИИ

Холикова Адлия Омонуллаевна¹, д.м.н.

Абдуллаев Аброржон Акмалжон угли¹

Хакимов Иброхим Исмоилжон угли¹

¹ Республиканский специализированный научно-практический медицинский центр эндокринологии МЗ Республики Узбекистан имени акад. Ё.Х.

Туракулова, Ташкент, Республика Узбекистан

ORCID: Холикова А.О. — 0009-0006-5327-4322; Абдуллаев А.А. — 0009-0006-3826-7730; Хакимов И.И. — 0009-0002-3221-0750

Актуальность. Неактивные аденомы гипофиза (НАГ) нередко диагностируются на стадии крупного опухолевого образования, когда клиническая картина определяется не гормональной гиперсекрецией, а масс-эффектом опухоли, направлением её роста и степенью компрессии хиазмально-селлярных структур. Особую категорию составляют гигантские НАГ размером 40 мм и более. Для них характерны распространённый рост, вовлечение супра-, пара-, инфра- и ретроселлярных областей, а также более сложное хирургическое лечение. В связи с этим МРТ-оценка направления роста опухоли и нейроофтальмологическое обследование имеют ключевое значение для диагностики, выбора лечебной тактики и послеоперационного наблюдения.

Цель исследования. Оценить и сопоставить МРТ- и нейроофтальмологические особенности макро- и гигантских неактивных аденом гипофиза, а также определить признаки, характеризующие более распространённый опухолевый процесс.

Материал и методы. Проведено проспективное сравнительное исследование 151 пациента с неактивными аденомами гипофиза, наблюдавшихся в Республиканском специализированном научно-практическом медицинском центре эндокринологии МЗ Республики Узбекистан имени акад. Ё.Х. Туракулова в 2021–2023 гг. В зависимости от максимального диаметра опухоли пациенты были распределены на две группы: 1-я группа — 55 больных с макроаденомами гипофиза размером 20–39 мм; 2-я группа — 96 пациентов с гигантскими аденомами гипофиза размером ≥ 40 мм.

Всем пациентам проводилась МРТ гипофиза с контрастным усилением гадолинием на аппарате 1,5 Тл. При анализе МРТ оценивали тотальный, супраселлярный, ретроселлярный и инфраселлярный варианты роста, параселлярную инвазию, прораствание в мозг и расширение III желудочка. Для



стандартизированной оценки распространения опухоли использовали классификацию Knosp и классификацию SIPAP (Edal et al.). Нейроофтальмологическое обследование включало оценку остроты зрения, исследование полей зрения и осмотр глазного дна. Основным анализируемым офтальмологическим признаком являлась битемпоральная гемианопсия.

Результаты. Сравнительный анализ МРТ-характеристик показал, что наиболее значимым анатомическим отличием гигантских НАГ являлось преобладание тотального варианта роста. Данный вариант выявлен у 69 пациентов с гигантскими НАГ (71,8%) против 20 пациентов с макроНАГ (36,4%; $p < 0,001$). Это свидетельствует о более распространённом характере опухолевого процесса при гигантских аденомах и может иметь значение при планировании хирургического вмешательства.

Супраселлярный рост чаще регистрировался в группе макроНАГ — у 45 пациентов (81,8%), тогда как среди пациентов с гигантскими НАГ он выявлен у 49 больных (51,0%; $p < 0,001$). Ретроселлярный рост также чаще встречался при макроаденомах: 25 случаев (45,4%) против 9 случаев (9,4%) при гигантских НАГ ($p < 0,001$). Эти данные показывают, что клиническая значимость опухоли определяется не только максимальным диаметром, но и направлением роста, а также топографо-анатомическим взаимоотношением опухоли с хиазмально-селлярными структурами.

Параселлярная инвазия выявлялась часто в обеих группах: у 42 пациентов с макроНАГ (76,4%) и у 78 пациентов с гигантскими НАГ (81,3%; $p > 0,05$). Инфраселлярное расширение отмечено у 44 пациентов 1-й группы (80,0%) и у 69 пациентов 2-й группы (71,9%; $p > 0,05$). Прорастание в мозг выявлялось у 10 пациентов с макроНАГ (18,2%) и у 25 пациентов с гигантскими НАГ (26,0%; $p > 0,05$). Расширение III желудочка регистрировалось у 32 пациентов 1-й группы (58,2%) и у 57 пациентов 2-й группы (59,4%; $p > 0,05$). Несмотря на отсутствие статистически значимых различий по этим признакам, их высокая частота подчёркивает необходимость детальной предоперационной МРТ-оценки у всех пациентов с крупными НАГ.

Нейроофтальмологические нарушения сохраняли высокую клиническую значимость в обеих группах. Битемпоральная гемианопсия была выявлена у 45 пациентов с макроНАГ (81,8%) и у 49 пациентов с гигантскими НАГ (51,0%; $p < 0,001$). Более высокая частота гемианопсии в группе макроаденом может быть связана с особенностями супраселлярного роста и непосредственной компрессией хиазмальной области, что подтверждает необходимость оценивать не только размер опухоли, но и направление её распространения.

Заключение. Гигантские неактивные аденомы гипофиза характеризуются более частым тотальным вариантом роста, что отражает распространённый характер опухолевого процесса и может осложнять хирургическую тактику. В то же время выраженность зрительных нарушений зависит не только от максимального размера опухоли, но и от её супраселлярного компонента, направления роста и степени компрессии хиазмальной области. МРТ гипофиза



с контрастированием и нейроофтальмологическое обследование должны рассматриваться как обязательные элементы диагностики и динамического наблюдения пациентов с макро- и гигантскими НАГ.

Ключевые слова: неактивная аденома гипофиза, макроаденома, гигантская аденома гипофиза, МРТ гипофиза, битемпоральная гемианопсия, параселлярная инвазия.



БОЛАЛАРДА СУРУНКАЛИ ТОНЗИЛЛИТНИНГ ТАРҚАЛИШИ ВА ДОЛЗАРБЛИГИ

Хамидов Б.Х.

Шарипов С.С.

Тошкент давлат тиббиёт институти,
Тошкент, Ўзбекистон

Долзарблиги. Сурункали тонзиллит (СТ) болалар оториноларингологиясида энг кўп учрайдиган касалликлардан бири бўлиб, унинг тарқалганлиги йил сайин ортиб бормоқда. XX асрнинг 50-йилларига нисбатан кўрсаткич 2,8–4,1 % дан 10–15 % гача, айрим маълумотларга кўра эса 37–63 % гача ошган [1]. Хорижий тадқиқотларда ҳам ўхшаш тенденция қайд этилган: жумладан, Судандаги кўндаланг кесим тадқиқотида ЛОР бўлимига мурожаат қилганларнинг 25,9 % ида СТ аниқланган, беморларнинг 67,5 % и эркак жинсига мансуб бўлган ва асосий қисми 11–20 ёш оралиғида бўлган [2]. Саудия Арабистонининг Ал-Боҳа минтақасида ўтказилган тадқиқотда 348 нафар тонзиллит билан оғриган беморлардан 60 % и эркаклар бўлган [3].

Мақсад. Болаларда сурункали тонзиллитнинг замонавий тарқалганлик кўрсаткичлари ва унга таъсир этувчи омилларни таҳлилий адабиётлар асосида ўрганиш.

Материал ва усуллар. Маҳаллий ва хорижий адабиётлар манбалари, шу жумладан 2022–2024 йилларда чоп этилган эпидемиологик тадқиқотлар (Судан, Саудия Арабистони, Италия, Франция, Кипр, АҚШ) таҳлил қилинди. Умумий 6 та мамлакат бўйича 5000 дан ортиқ бемор иштирок этган тадқиқотлар маълумотлари қиёсланди.

Натижалар ва таҳлил. Ўтказилган таҳлил шуни кўрсатдики, тарқалганлик кўрсаткичлари минтақалар бўйича 20,3 % дан (Италия, БГСА-ассоциирланган ҳолатлар) 25,9 % гача (Судан) ўзгариб турибди, бунда энг юқори кўрсаткич 3–6 ёш (42,3 %) ҳамда 11–20 ёш гуруҳларида қайд этилган [2, 4]. Эркак жинсининг устунлиги барча таҳлил қилинган тадқиқотларда изчил кузатилган (60–67,5 %), бу эса жинсга боғлиқ иммунологик ёки ижтимоий-хулқий омилларнинг мавжудлигини тахмин қилиш имконини беради. А гуруҳ бета-гемолитик стрептококк (БГСА) билан боғлиқ инфекциялар сонининг COVID-19 пандемиясидан кейинги даврда (2022–2024) бир қатор мамлакатларда — Франция, Кипр, АҚШнинг Колорадо штатида — кескин ошгани қайд этилган: Францияда 402 нафар боладаги оғир БГСА инфекцияси таҳлил қилиниб, уларнинг 55 % ида юқори ва пастки нафас йўллари жараёнлари, emm1 генотиби эса штаммларнинг 73,0 % ини ташкил этгани аниқланган [5]. Колорадо штатидаги 2022–2023 йиллардаги эпидемия



даврида инвазив БГСА билан оғриган болаларнинг 33 % ига реанимация бўлимига жойлаштириш талаб қилинган ва 2 нафар бемор вафот этган [6].

Шундай қилиб, тарқалганлик кўрсаткичларининг минтақавий фарқи, шунингдек мактабгача ва кичик мактаб ёшидаги болаларда касалликнинг устунлиги, БГСА билан боғлиқ инфекцияларнинг сўнгги йиллардаги глобал ортиши болаларда СТ ни ўз вақтида аниқлаш ва профилактика қилиш заруратини яна бир бор тасдиқлайди. Марказий Осиё минтақасида, жумладан Ўзбекистонда бундай замонавий эпидемиологик маълумотларнинг етишмаслиги маҳаллий тадқиқотлар ўтказиш заруратини кучайтиради.

Хулоса. Сурункали тонзиллитнинг юқори тарқалганлиги, унинг ёш ва жинс бўйича ноаниқ тақсимланиши ҳамда стрептококк инфекцияларининг сўнгги йиллардаги глобал ортиши болаларда касалликни эрта аниқлаш ва профилактика чора-тадбирларини такомиллаштиришни тақозо этади. Марказий Осиё минтақасида замонавий эпидемиологик тадқиқотлар ўтказиш долзарб илмий вазифа ҳисобланади.

Адабиётлар рўйхати:

1. Хамидов Б.Х. Болаларда сурункали тонзиллит диагностикаси ва комплекс даволашни оптималлаштириш: PhD диссертацияси аннотацияси. — Тошкент, 2026.
2. Alrayah M. The Prevalence and Management of Chronic Tonsillitis: Experience From Secondary Care Hospitals in Rabak City, Sudan // Cureus. — 2023. — Vol. 15, № 2. — e34914.
3. Tonsillitis Prevalence, Diagnosis, and Treatment among Patients in Al-Baha Region // Saudi Journal for Health Sciences. — 2023. — Vol. 12, № 3. — P. 227–234.
4. Boccuzzi E. et al. Group A Streptococcus infections in children and adolescents in the post-COVID-19 era: a regional Italian survey // Ital J Pediatr. — 2024.
5. Levy C. et al. Severe Group A Streptococcus Infection among Children, France, 2022–2024 // Emerg Infect Dis. — 2024.
6. Unprecedented Outbreak of Invasive Group A Streptococcus Infections in Children — Colorado, October 2022 to March 2023 // Open Forum Infect Dis. — 2023.



ЗАМОНАВИЙ ИНФОРМАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР ҚЎЛЛАНГАН ВА АНЪАНАВИЙ УСУЛДА ТАЙЁРЛАНГАН БЕМОРЛАР ГУРУХЛАРИДА КЛИНИК-ФУНКЦИОНАЛ НАТИЖАЛАРНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ

Турсунов Д.К.

Косимов К.К.

*Андижон давлат тиббиёт
институтини, Андижон, Ўзбекистон*

Долзарблиги. Эндоскопик дакриоцисториностомияга тайёргарликда замонавий информацион технологияларнинг (уч ўлчамли моделлаштириш, сунъий интеллектга асосланган башоратлаш) қўлланилиши назарий жиҳатдан асосланган бўлса-да, уларнинг анъанавий тайёргарлик усулига нисбатан клиник-функционал устунлигини тасдиқловчи қиёсий тадқиқотлар ҳозирча етарли эмас [1].

Мақсад. Замонавий информацион технологиялар қўлланилган ҳолда тайёрланган ва анъанавий усулда (икки ўлчамли КТ тасвирлари асосида) тайёрланган беморлар гуруҳларида эндоскопик, дакриоцистографик ҳамда Веста ва Джонс синамалари натижаларини қиёсий баҳолаш.

Материал ва усуллар. Тадқиқотга киритилиши режалаштирилган беморлар икки гуруҳга ажратилади: биринчи гуруҳда операциядан олдин уч ўлчамли КТ-моделлаштиришдан фойдаланилади, иккинчи (назорат) гуруҳда эса анъанавий икки ўлчамли тасвирлар асосида режалаштириш амалга оширилади. Ҳар икки гуруҳда операциядан кейин 3, 6 ва 12 ойлик муддатларда эндоскопик кўрик, дакриоцистография ҳамда функционал синамалар (Веста ва Джонс синамалари) ўтказилиб, анатомик ва функционал муваффақият кўрсаткичлари, шунингдек қайталанишлар частотаси таққосланади. Статистик таҳлил Statistica 10.0 дастурида Стьюдент мезони ёрдамида амалга оширилади.

Кутилаётган натижалар. Бошқа краниофациал жарроҳлик соҳаларида тўпланган тажриба [2, 3] ҳамда стентлаш ва митомидин С қўлланилиши бўйича тадқиқотлар [4] шуни кўрсатадики, преоперацион режалаштириш сифатининг ошиши операциядан кейинги қайталанишлар частотасининг камайиши ва функционал натижаларнинг яхшиланиши билан боғлиқ бўлиши мумкин. Замонавий технологиялар қўлланилган гуруҳда анатомик ва функционал муваффақият кўрсаткичларининг назорат гуруҳига нисбатан юқорироқ бўлиши кутилмоқда.

Хулоса.



Замонавий информацион технологиялар ва анъанавий тайёргарлик усулларининг клиник-функционал натижалари бўйича олиб бориладиган қиёсий тадқиқот эндоскопик дакриоцисториностомияга тайёргарлик стандартларини такомиллаштириш учун объектив илмий асос яратади.

Адабиётлар:

1. El Bouhmadi K., Loudghiri M., Oukessou Y., Rouadi S., Abada R., Roubal M., Mahtar M. Evaluation of the endoscopic revision of dacryocystorhinostomy failure cases: a cohort study // *Annals of Medicine and Surgery (Lond.)*. – 2023. – Vol. 85, № 9. – P. 4218–4222.
2. Dvoracek L.A., Lee J.Y., Unadkat J.V., Lee Y.H., Thakrar D., Losee J.E., Goldstein J.A. Low-cost, three-dimensionally-printed, anatomical models for optimization of orbital wall reconstruction // *Plastic and Reconstructive Surgery*. – 2022. – Vol. 149, № 6. – P. 1255e–1257e.
3. Molinari G. et al. Assessment of a novel patient-specific 3D printed multi-material simulator for endoscopic sinus surgery // *Frontiers in Bioengineering and Biotechnology*. – 2022. – Vol. 10. – Art. 974021.
4. Kinasz M., Nowak-Gospodarowicz I., Kicińska A.K., Rękas M., Nowak R. Long-term outcomes of revisional powered endoscopic dacryocystorhinostomy (EnDCR) with intraoperative application of Mitomycin C // *Journal of Clinical Medicine*. – 2025. – Vol. 14, № 9. – Art. 3116.



MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

**ХУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

Donayev Abduqodir Haydarovich

QURILISH PUDRATI SHARTNOMASIDA ZARARNI QOPLASH
MAJBURIYATINI TA'MINLASHNING TASHKILIY-HUQUQIY
MEKANIZMLARI.....6

**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

Nigina Rasuleva

“BUKLANGAN PEKIN” 《北京折叠》 QISSASIDA ILMIY FANTASTIKA VA
IJTIMOIY TANQID NISBATI.....11

**ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

Avezov Mirzobek Komiljonovich

IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY
RESURLARNING AHAMIYATI.....16

Xakkulov Akbar Uralovich

BAZEL IRRBB TALABLARI ASOSIDA BANKLARDA FOIZ RISKI
NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH.....22

Yangiboev Rustam Berdiyevich

RAQAMLI BANK XIZMATLARINING TIJORAT BANKLARI
LIKVIDLILIGIGA TA'SIRI.....33

**ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

Karimqulova Surayyo Numonjon qizi

O'SMIRLARDA OTA-ONALAR BILAN NIZOLI VAZIYATLARNING YUZAGA
KELISHIDA VIRTUAL AXBOROTLARNING TUTGAN O'RNI.....43



**БИОМЕДИЦИНА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР**

Гайратов Азизжон Хасан угли, Ходжаева Зилолаxon Анвар кизи СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ И КЛИНИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПАРС ПЛАНА ВИТРЕКТОМИИ В ЛЕЧЕНИИ ПОСТОПЕРАЦИОННОГО И ПОСТТРАВМАТИЧЕСКОГО ЭНДОФТАЛЬМИТА.....	47
Холикова Адлия Омонуллаевна, Абдуллаев Аброржон Акмалжон угли, Хакимов Иброхим Исмоилжон угли СТРУКТУРА ГИПОПИТУИТАРИЗМА И ГОРМОНАЛЬНЫХ НАРУШЕНИЙ У ПАЦИЕНТОВ С ГИГАНТСКИМИ НЕАКТИВНЫМИ АДЕНОМАМИ ГИПОФИЗА.....	51
Мухсинова Махзуна Холмурадовна, Акбарова Одинахон Расуловна БОШ МИЯ ТУҒРУҚ ЖАРОҲАТИНИНГ ЭРТА ДАВРИДА ЧАҚАЛОҚЛАР БУЙРАК УСТИ БЕЗИНИНГ МОРФОФУНКЦИОНАЛ ҲОЛАТИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ.....	54
Холикова Адлия Омонуллаевна, Абдуллаев Аброржон Акмалжон угли, Хакимов Иброхим Исмоилжон угли ТОПОГРАФО-АНАТОМИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ГИГАНТСКИХ НЕАКТИВНЫХ АДЕНОМ ГИПОФИЗА ПО ДАННЫМ МАГНИТНО- РЕЗОНАНСНОЙ ТОМОГРАФИИ.....	60
Хамидов Б.Х., Шарипов С.С. БОЛАЛАРДА СУРУНКАЛИ ТОНЗИЛЛИТНИНГ ТАРҚАЛИШИ ВА ДОЛЗАРБЛИГИ.....	63
Турсунов Д.К., Косимов К.К. ЗАМОНАВИЙ ИНФОРМАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР ҚЎЛЛАНГАН ВА АНЪАНАВИЙ УСУЛДА ТАЙЁРЛАНГАН БЕМОРЛАР ГУРУҲЛАРИДА КЛИНИК-ФУНКЦИОНАЛ НАТИЖАЛАРНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ.....	65



**TADQIQOT.UZ ТОМОНИДАН
ТАШКИЛ ЭТИЛГАН**

**”ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР”
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 91-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ**

(1-қисм)

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович

Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович

Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Эълон қилиш муддати: 31.08.2026